

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI

AKADEMIK LITSEYLAR PEDAGOG KADRLARI
MALAKASINI OSHIRISH KURSI

“ONA TILI VA ADABIYOTI” yo‘nalishining

“ONA TILI VA ADABIYOTI FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY
METODLAR”

MODULI BO‘YICHA
O‘QUV – USLUBIY MAJMUA

BUXORO - 2026

Modulning o‘quv uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus tahlim vazirligining 2025-yil «30» dekabrda yig‘ilishida tasdiqlangan “Ona tili va adabiyot” malaka oshirish yo‘nalishi o‘quv reja va o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: BuxDU O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida
dotsenti, f.f.f.d. (PhD) M.Y.Xojiyeva

Taqrizchi: BuxDU O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida
professori, f.f.d.(DSc) D.N.Yo‘ldosheva

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II.MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.....	10
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	22
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	29
V. GLOSSARIY	68
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI:.....	79

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Ishchi dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 2-sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo'nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Ishchi dastur doirasida berilayotgan mavzular orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan filolog pedagoglarni ona tili va adabiyot fanini o'qitishning zamonaviy yodashuvlariga oid bilimlar darajasini kengaytirish va chuqurlashtirish hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

Modulning maqsad va vazifalari

Modulning maqsadi tinglovchilarni til va adabiyot ta'limi jarayonining yaxlitligi tamoyili, zamonaviy o'qitish usullari va qonuniyatlari, nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishda ona tili va adabiyot darsliklaridagi mavzu va ma'lumotlardan foydalanish; ona tili o'qitishning o'ziga xosligi va uni zamonaviylashtirishga amal qilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishdan iborat

Modulning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini uzluksiz oshirish va rivojlantirish;
- pedagoglarning zamonaviy talablarga mos holda akademik litseylardagi o‘qitish sifati va samaradorligini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan kasbiy mahorat darajasini oshirish;
- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy raqamli texnologiyalar va xorijiy tillarning samarali o‘zlashtirilishini ta‘minlash;
- o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish hamda ulardan o‘quv jarayonida samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- o‘quv jarayonini ilm-fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta‘minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo‘yiladigan talablar:

“Ona tili va adabiyoti fanini o‘qitishda zamonaviy metodlar” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- ona tili ta‘limida qo‘llaniladigan zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining mazmuni va turlarini;
- zamonaviy dars turlari, shakllari hamda interfaol metodlarning didaktik asoslarini;
- savod o‘rgatish metodikasining ilmiy, lingvistik va psixologik asoslarini;
- ona tili va adabiy ta‘limda qo‘llaniladigan o‘qitish metodlari hamda Blum taksonomiyasining nazariy mohiyatini;
- ta‘lim jarayonida motivatsiyaning pedagogik-psixologik ahamiyatini;
- badiiy asarlarni janr\ va obrazlar tizimiga ko‘ra o‘rganish tamoyillarini;
- Blum taksonomiyasi asosida savol va topshiriqlar tuzish mezonlarini;
- savod o‘rgatish metodikasining ilmiy, psixologik va lingvistik asoslarini;

- o'quvchilar nutqini o'stirishda ko'rgazmali eksperimentlar metodikasini;
- nutqiy xatolar ustida ishlash yuzasidan muammoli topshiriqlarni loyihalashni **bilishi** kerak.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat				
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi			Mustaqil ta’lim
			Jami	jumladan		
				Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	
1.	Ona tili darslarida zamonaviy til o‘qitish metodlari.	2	2	2		
2.	Ona tili va adabiyoti fanini o‘qitishda zamonaviy baholash metodlari.	4	4	2	2	
3.	Zamonaviy dars turlari va shakllari.	2	2		2	
4.	Savod o‘rgatish metodikasining ilmiy, lingvistik va psixologik asoslari.	2	2		2	
Jami:		10	10	4	6	

NAZARIY MASHG'ULOT MAVZUSI

1-mavzu: Ona tili darslarida zamonaviy til o'qitish metodlari. (2 soat).

Ona tili bo'limlarini (fonetika, leksikologiya hamda morfologiya, sintaksis) o'rganishda kommunikativ metod, funksional-grammatik yondashuv, integrativ til kompetensiyalarini rivojlantirish usullari. Flipped classroom (teskari sinf),

problem-based learning, inquiry-based learning asosida til birliklarini o'zlashtirish metodikasi. Adabiyot fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar. Kompetensiyaga yo'naltirilgan adabiy ta'lim, reader-response (o'quvchi javobi) yondashuvi, interpretativ va dialogik o'qitish metodlari. Badiiy matnni tahlil qilishda kritik o'qish, close reading, Socratic questioning va case-based learning metodlaridan foydalanish.

2-mavzu: Ona tili va adabiyoti fanini o'qitishda zamonaviy baholash metodlari. (2 soat).

Ona tili va adabiyoti fanini o'qitishda zamonaviy baholash metodlari. Formativ va summativ baholash, rubrikalar asosida yozma va og'zaki nutqni baholash. O'zaro baholash, o'z-o'zini baholash va refleksiya metodlari. Zamonaviy metodlarni qo'llashda pedagogik etika, akademik halollik va til madaniyatiga rioya qilish.

AMALIY MASHG'ULOT MAVZULARI

1-amaliy mashg'ulot: Ona tili va adabiyoti fanini o'qitishda zamonaviy baholash metodlari. (2 soat).

Ona tili va adabiyoti fanini o'qitishda zamonaviy baholash metodlari. Formativ va summativ baholash, rubrikalar asosida yozma va og'zaki nutqni baholash. O'zaro baholash, o'z-o'zini baholash va refleksiya metodlari. Zamonaviy metodlarni qo'llashda pedagogik etika, akademik halollik va til madaniyatiga rioya qilish.

2- amaliy mashg'ulot: Zamonaviy dars turlari va shakllari (2 soat amaliy)

Ona tili va adabiyot mavzularini o'qitishda zamonaviy dars turlari. O'yin shaklidagi darslar, loyiha darslar, integratsiyalashgan darslar. O'qitish metodikasida motivatsiya. Asarlarni janr va obrazlar tizimiga ko'ra o'ganish.

Blum taksonomiyasi asosida savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish. Faol o'qish modelini qo'llash. Adabiy ta'limda kreativ va tanqidiy fikrlashni shakllantirish usullari.

3-mavzu. Savod o'rgatish metodikasining ilmiy, lingvistik va psixologik asoslari. (2 soat amaliy)

Adabiy ta'limda kreativ va tanqidiy fikrlashni shakllantirish usullari. Ta'lim jarayonida innovatsion ta'lim metodlaridan samarali foydalanish. O'quvchilar nutqini o'stirishda ko'rgazmali eksperimentlar metodikasining o'rni. Nutqiy xatolar ustida ishlash yuzasidan muammoli topshiriqlarni loyihalash.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: O'zbekiston, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: O'zbekiston, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: O'zbekiston, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: O'zbekiston, 2020. – 400 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi – T.: O'zbekiston, 2021. - 464 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

7. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023

8. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentabr “Oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3290-sonli Qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4910-son Qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzduksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” 296-son Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

14. Dadaboyev H. “O‘zbek terminologiyasi” - T.: Nodirabegim, 2020-142b.

15. Xudoyberganova D. “Til. Tafakkur. Madaniyat” – T.: Nodirabegim, 2020.

16. Qodirov Sh. “O‘zbek tilida punktuatsiya qoidalari” – T.: “Fan va ta’lim”, 2019. – 132 b.

17. Normurodova G. “Yozma nutqda tinish belgilarining ro‘li” – “Til va adabiyot ta’limi” jurnali, №2, 2020. – 21–30 b.

18. Rustamova N. “Punktuatsiya va matnning mantiqiy tuzilishi” – T.: “Zamonaviy ta’lim”, 2021. – 98 b.

19. Ergasheva D. “O‘quvchilarda yozma nutq madaniyatini shakllantirishda punktuatsiya” – “Pedagogik innovatsiyalar”, №3, 2022. – 35–42 b.

20. Tursunov A. “Zamonaviy maktabda o‘zbek tilini o‘qitishda punktuatsiya metodikasi” – T.: “O‘qituvchi”, 2023. – 112 b.

21. Jalilova S. Til kompetentsiyasini rivojlantirish metodikasi. – T.: “Fan va innovatsiya”, 2020. – 140 b.
22. Mirzaev F. O‘quvchilarda yozma nutq va til kompetentsiyasini oshirish. – “Ta’lim va tarbiya”, №4, 2021. – 55–63 b.
23. Sattorova L. O‘zbek tilini o‘qitishda yozma nutq madaniyati. – T.: “Pedagogik qo‘llanma”, 2022. – 168 b.
24. Raxmonov B. Yozma nutq va punktuatsiya: o‘quvchi kompetentsiyasi. – “Oliy ta’limda innovatsiyalar”, №1, 2023. – 47–54 b.
25. Normurodova, D. O‘zbek tili darslarida yozma nutq va punktuatsiya bo‘yicha mashqlar. – T.: “O‘qituvchi metodikasi”, 2024. – 102 b
26. Simon Greenall “Reward” Elementary. Student’s book. Macmillan, 2002.

IV. Internet saytlar

21. <http://edu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
22. <http://lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
23. <http://lib.bimm.uz> - Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
24. <http://ziyonet.uz> - Ta’lim portali Ziyonet
25. <http://natlib.uz> -Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. **Interfaol metodlar** deganda-ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir echimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. YOzma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.


“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan ta'lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta'lim oluvchilar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda-yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.
3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda-mavzudan so'ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g'oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
 2. Bildirilgan har qanday fikr-g'oyalar, ular hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.
 3. Har bir ta'lim oluvchi qatnashishi shart.
- Quyida “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, g‘oya va mulohaza) bildirishlarini so‘raladi;
2. Ta’lim oluvchilar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Ta’lim oluvchilarning fikr-g‘oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi;
4. Fikr-g‘oyalar ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli fikr-g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g‘oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud;
- ta’lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otadi.

“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- ta'lim beruvchi tomonidan savolni to'g'ri qo'ya olmaslik;
- ta'lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi - ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:

- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.


«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

“Davra suhbat” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.


“Davra suhbat” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni

oʻrnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining ogʻzaki va yozma shakllari mavjuddir. Ogʻzaki davra suhbatida taʼlim beruvchi mavzuni boshlab beradi va taʼlim oluvchilardan ushbu savol boʻyicha oʻz fikr-mulohazalarini bildirishlarini soʻraydi va aylana boʻylab har bir taʼlim oluvchi oʻz fikr-mulohazalarini ogʻzaki bayon etadilar. Soʻzlayotgan taʼlim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim boʻlsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib boʻlingandan soʻng muhokama qilinadi. Bu esa taʼlim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.



Davra stolining tuzilmasi

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir taʼlim oluvchiga konvert qogʻozi beriladi. Har bir taʼlim oluvchi konvert ustiga maʼlum bir mavzu boʻyicha oʻz savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga oʻz javobini yozib, konvert ichiga solib qoʻyadi. SHundan soʻng konvertni soat yoʻnalishi boʻyicha yonidagi taʼlim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan taʼlim oluvchi oʻz javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qoʻyadi va yonidagi taʼlim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana boʻylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yigʻib olinib, tahlil qilinadi. Quyida “Davra suhbat” metodining tuzilmasi keltirilgan



“Davra suhbat” metodining tuzilmasi

“Davra suhbat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg‘ulot mavzusi e’lon qilinadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni mashg‘ulotni o’tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta’lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta’lim oluvchi bo’lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo’yiladi. Ta’lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o’z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta’lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo’yicha o’z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o’z javobini yozib, konvert ichiga solib qo’yadi.
5. Konvertga savol yozgan ta’lim oluvchi konvertni soat yo’nalishi bo’yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.
6. Konvertni olgan ta’lim oluvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo’yadi hamda yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo‘ylab aylanib, yana savol yozgan ta’lim oluvchining o‘ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta’lim oluvchi konvertdagi “Javoblar varaqalari”ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig‘ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta’lim oluvchilar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta’lim oluvchilarni muayyan mavzu bo‘yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta’lim oluvchilar o‘zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta’lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta’lim beruvchi ham ta’lim oluvchilarni ob’ektiv baholashi mumkin.

“Davra suhbat” metodining afzalliklari:

- o‘tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etadilar;
- har bir ta’lim oluvchi o‘zining baholanishi mas’uliyatini his etadi;
- o‘z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

“Davra suhbat” metodining kamchiliklari:


- ko‘p vaqt talab etiladi;
- ta’lim beruvchining o‘zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etiladi;
- ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo‘lgan mavzu tanlash talab etiladi.

“Rolli o‘yin” metodi - ta’lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko‘rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o‘yinlarning ishbop o‘yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga “Rolli o‘yin” metodida ta’lim oluvchilar ta’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, “Ishbop o‘yin” metodida rol ijro etuvchilar ma’lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o‘zlari hal etadilar.

Rolli o‘yinda ham ishbop o‘yin kabi muammoni echish bo‘yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo‘lga qo‘yilgan. Rolli o‘yinlar ta’lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

“Rolli o‘yin” metodida ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar haqida oldindan ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. Chunki rollarni o‘ynashda har bir ta’lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o‘yinlar o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Quyida “Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi

“Rolli o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha o‘yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o‘yin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. O‘yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O‘yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta’lim oluvchilar o‘z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta’lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.
5. O‘yin yakunida ta’lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi

bo'lgan ta'lim oluvchilar o'z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o'yinga xulosa qilinadi.

Ushbu metodni qo'llash uchun ssenariy t'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba'zi hollarda ta'lim oluvchilarni ham ssenariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu ta'lim oluvchilarning motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Ssenariy maxsus fan bo'yicha o'tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan ba'zi bir holatlarni yoritishi kerak. Ta'lim oluvchilar ushbu rolli o'yin ko'rinishidan so'ng o'z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim.

“Rolli o'yin” metodining afzallik tomonlari:

- o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarda motivatsiya (qiziqish)ni shakllantirishga yordam beradi;
- ta'lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishni o'rgatadi;
- ta'lim oluvchilarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi.

“Rolli o'yin” metodining kamchilik tomonlari:

- ko'p vaqt talab etiladi;
- ta'lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;
- ta'lim oluvchilarning o'yinga tayyorgarligi turlicha bo'lishi mumkin;
- barcha ta'lim oluvchilarga rollar taqsimlanmay qolishi mumkin.


“Bahs-munozara” metodi - biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta'lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta'lim beruvchining o'zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta'lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta'lim oluvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- “o'ng qo'l” qoidasi (qo'lini ko'tarib, ruhsat olgandan so'ng so'zlash)ga rioya qilish;
- fikr-g'oyalarni tinglash madaniyati;
- bildirilgan fikr-g'oyalarning takrorlanmasligi;
- bir-birlariga o'zaro hurmat.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o'tkazish tuzilmasi berilgan.



“Bahs-munozara” metodining tuzilmasi

“Bahs-munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammo bo'yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.

3. Ta'lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya'ni turli g'oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta'lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga o'z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.

4. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g'oyalarni guruhlarga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.

5. Tahlil natijasida qo'yilgan muammoning eng maqbul echimi tanlanadi.

“Bahs-munozara” metodining afzalliklari:


- ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;
- ta'lim oluvchilar o'z fikrining to'g'riligini isbotlashga harakat qilishiga imkoniyat yaratiladi;
- ta'lim oluvchilarda tinglash va tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

“Bahs-munozara” metodining kamchiliklari:

- ta'lim beruvchidan yuksak boshqarish mahoratini talab etadi;
- ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi.

“Muammoli vaziyat” metodi - ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning echimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda echimni topa olmagach, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning echimini topishni o'rganadilar. Quyida “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni echishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni echish yo'llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning echimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil echimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni echish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“Muammoli vaziyat” metodining afzalliklari:

- ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- ta'lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va echimlarni topishni o'rganadilar;
- ta'lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta'lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o'rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining kamchiliklari:

- ta'lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;
- qo'yilgan muammo ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;

III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-mavzu. Ona tili darslarida zamonaviy til o‘qitish metodlari.

Reja:

1. Ona tili va adabiyot fanidagi zamonaviy yondashuvlar.
2. Bixevoristik yondashuv.
3. Integrativ yondashuv.

Tayanch iboralar: *ona tili va adabiyot ta’limi turlari, dasturlashtirilgan ta’lim, modulli ta’lim, masofali ta’lim, eksternat ta’lim, dars tipi, maqsadi, tuzilishi*

Ta’lim O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e’lon qilinadi;

- ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- umumiy o‘rta, shuningdek o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining majburiyligi;
- ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg‘unlashtirish.

Jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e’tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqei, turar joyi, O‘zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat’i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi.

- davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini rivojlantirish;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o'qitish, shuningdek ta'lim muassasalarida shartnoma asosida to'lov evaziga kasb-hunar o'rgatish;

XXI asrga qadam qo'yish arafasida G.K.Selevko tomonidan PTga oid yirik metodologik asar - o'quv qo'llanma yaratildi va unda pedagogik texnologiyalar tasnifi keltiriladi. Olim PTLarni o'n ikki turga ajratadi:

1. Qo'llanish darajasi bo'yicha (umumpedagogik; xususiy predmetli; lokalli, modulli, tor pedagogik).

2. Falsafiy asos bo'yicha (materializm, idealizm, dialektik, metofizik, insonparvar, noinsonparvar, antroposofiya, teosofiya, pragmatizm, ekzistensializm, ssionizm).

3. O'zlashtirish konsepsiyasi bo'yicha (assotsativ - reflektorli, rivojlantiruvchi, **bexevioristik**, geshtalttexnologiya, suggestiv, neyrolingvistik).

5. SHaxs tuzulmasiga yo'naltirilganlik bo'yicha (informatsion, operatsion, hayajonli - badiiy , hayajonli - axloqiy, o'z-o'zini rivojlantiruvchi, evrestik va amaliy).

9. Bolaga yondashish bo'yicha (avtoritar, didaktotsentrik, shaxsga yo'nalgan texnologiyalar, hamkorlik texnologiyasi, erkin tarbilash texnologiyasi, ezoterik texnologiyalar).

Ta'lim jarayoniga texnologik yondashuv quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga qamrab oladi:

Ushbu tarkibiy qismlarning dastlabki to'rttasi o'qituvchi faoliyati va uning boshqaruvi, beshinchisi esa bevosita o'qituvchi va maktab ma'muriyati boshqaruvini ifodalaydi.

Ta'lim jarayonini loyihalash doirasida tahsil oluvchilar faoliyatini nazorat qilish muhim o'rin tutadi. Shu bois nazorat jarayonini loyihalash ham o'qituvchidan alohida malakali yondashuvni talab etadi.

Akadem litseylarda innovatsion jarayonlarni tashkil etishda o'ziga xos yondashuvlar kuzatiladi. Ular:

1. Gnostik-dinamik yondashuv (unga ko'ra pedagoglar pedagogik innovatsiyalar, ularning turlari, yaratilishi, amaliyotga tatbiq etilishi, xorij mamlakatlarida yaratilgan ilg'or pedagogik (ta'limiy) innovatsiyalar va ularni o'rganish, mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda amaliyotda ulardan foydalanishga doir bilim, ko'nikma, malakalarni izchil o'zlashtiradilar, o'z

faoliyatlarida pedagogik innovatsiyalarni faol qo'llash borasidagi tajribalarni o'zlashtiradilar).

2. Individual faoliyatli yondashuv (bunda pedagoglar o'zlarining individual imkoniyatlari, qobiliyatlari, tajribalariga tayangan hola amaliyo faoliyatda pedagogik innovatsiyalarni qo'llashda muayyan izchillikka erishadilar).

3. Ko'p sub'ektkli (dialogik) yondashuv (mazkur yondashuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni hamkasblarning o'zaro, xususan, ko'p yillik ish tajribasi, kasbiy mahorat va tajribaga ega pedagoglarning faoliyatlari bilan tanishish, ularning ta'lim innovatsiyalarini samarali, maqsadli va uzluksiz qo'llashga doir tavsiya hamda ko'rsatmalaridan foydalanishlarini ifodalaydi).

4. Insonparvarlik yondashuvi (ushbu yondashuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni qo'llashda ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari, xohish-istaklari, qiziqishlari, bilim, ko'nikma va malakalari darajasini inobatga olish maqsadga muvofiqligini yoritishga xizmat qiladi).

5. Individual-ijodiy yondashuv (unga ko'ra har bir pedagog faoliyatini o'rganilayotgan mavzu, o'quv materialining mohiyati, shuningdek, o'z imkoniyatlari, salohiyati, mahorati, ish tajribasidan kelib chiqqan holda ta'lim va tarbiya jarayonlarini ijodiy ishlanmalar asosida tashkil etadi).

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy meyorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan maimniali

Mohiyatiga ko'ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat.

Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangilikni qo'llashga tayyorgarligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;

Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida BKMni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi.


M.Jumaniyozovanning e'tirof etishicha, pedagogik innovatsion faoliyati quyidagi **belgilar** asosida namoyon bo'ladi:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo'llay olish.

V.Slasteninning fikriga ko'ra innovatsion yondashuv quyidagilarga ega bo'lishni ifodalaydi:

- ijodiy faollik;
- faoliyatga yangilik (o'zgartirish) kiritishga texnologik va metodologik jihatdan tayyorgarlik;
- yangicha fikrlash;

Pedagogning kreativ potentsiali quyidagi tarkibiy asoslarni o'z ichiga oladi:



Hozirgi davrda uzluksiz ta'limni amalga oshirish umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi mazmunining nihoyatda xilma-xil bo'lishi hamda bosqichlarning tadrijiyligini ta'minlashni talab etadi. Davlat ta'lim standartlarini tuzish, ta'lim mazmunini tanlashda kurslarning invariant va variantiv qismlari nisbatini belgilashda integratsiyaning shakllari (an'anaviy va o'qitishning noan'anaviy aktiv metodlari), integratsiyalash darajalari (didaktik sintez darajasi, predmetlararo bog'liklikni ta'minlash darajasi) dan, integratsiyalash turlari (umumilliy, xususiy, ilmiy, muammoviy), integratsiyalash yo'nalishlari (yangi ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanish, ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalash, dunyo ta'lim bozorida menedjment va marketingni rivojlantirish), integratsiyalash an'analari (ta'limning ustuvorligi hamda milliy yo'nalganlikni ta'minlash, ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, ta'lim jarayonida inson shaxsini rivojlantirishni ko'zda tutish) dan unumli foydalanish darkor.

Zamonaviy pedagogika fani pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish g'oyalarini har tomonlama, turli nuqtai nazardan o'rganishga intilish bilan bir qatorda, ularni ta'lim amaliyotiga tatbiq etishning yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqadi. Bugungi kun pedagogika fanida tizimli yondashuv metodologiyasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarisiz pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlashni tasavvur etib bo'lmaydi.

Bunday innovatsion yondashuv hamda AKT vositalarining joriy etilishi mazkur jarayonlarda tasodifiy va kutilmagan holatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Tizimli yondashuvda ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan, pedagogik ahamiyat kasb etuvchi barcha jarayonlar majmui yaxlit tizim sifatida, ya'ni tashqi muhitda xizmat qilayotgan murakkab pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqiladi.

Bunda pedagogik jarayonlarning aloqalari va bog'liqligining mazmun va mohiyatiga ko'ra ularni bir butun, ya'ni yaxlit holda tasavvur etish talab etiladi. Pedagogik jarayonlar samaradorligini o'rganishda alohida xususiyatlarga ega bo'lgan bir necha qismlarga ajratib, ular o'rtasidagi aloqalar hamda o'zaro bog'liqlik xususiyatlari aniqlanadi, chunki har bir qism yaxlit tizimning o'zgarishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Tizimli yondashuv pedagogik jarayonlar samaradorligini o'rganishda o'ziga xos yaxlitlik, umumiylik, universallik, differentsiallik kabi tushunchalar asosida mujassamlashtirilgan yangi texnologiyalar, ya'ni integratsion texnologiyalar va AKT vositalarining joriy etilishini o'z ichiga oladi.

Universal tushunchalar apparati, abstraksiyaning yuqori darajasi, asosiy tamoyillarning integrativ xususiyatlari — subyektlarning turli sohalar bo'yicha tushunchalari, fikrlashi va dunyoqarashini o'rganishning samarali usuli sifatida tizimli yondashuvni qo'llash imkoniyatini yaratadi. Tizimli yondashuv yo'nalishidagi barcha bilim, ko'nikma va malakalar majmui talabalar faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarishda professor-o'qituvchilarga qo'yilayotgan talablar majmuini ifodalashi bilan bir qatorda, ularning faoliyati samaradorligini ta'minlovchi eng zarur omillar hisoblanadi. Tizimli yondashuvning asosiy tushunchasi «tizim» bo'lib, aloqa, munosabatlar, integratsiya, yaxlitlik, tashkil etuvchi qismlar kabi tushunchalar orqali ifodalanadi. Tizimning bir-biri bilan bog'liq bo'lgan, o'zaro ta'sir etuvchi komponentlarining majmui yaxlit obyektni tashkil etadi.

Mamlakatimizda va xorijda pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning ilmiy asoslari vujudga kelishiga ko'ra o'zining chuqur tarixiy ildizlariga ega bo'lib — bu tizimli yondashuvning rivojlanish jarayonidir. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga ilmiy yondashuvning barcha asoslari umumnazariy, umumboshqaruv, umumtexnologik, umumtizimlilik yondashuvlar bo'yicha olib borilgan izlanishlarning natijalariga asoslanadi. Shundan kelib chiqib, tadqiqotchi, olim, rahbar yoki pedagog har bir hodisa va voqeani, har bir obyektni hamda o'z faoliyatini tizim sifatida hisoblab, tizimli yondashuv tamoyillarini qo'llashi zarur.

Ta'lim muassasasida pedagog xodimlar va rahbarlarning asosiy vazifasi pedagogik jarayonlarni tashkil etishda ijobiy natijalarga erishish

uchun jamoada zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlash uchun pedagogik jarayonlarni yaxlit tizim sifatida rivojlantirish hisoblanadi. Pedagogik jarayonlarni o‘zaro bog‘liq holda yaxlit tizim deb hisoblasak, ularni tashkil etish va boshqarish ham tizimli xususiyatga ega bo‘lishi kerak. Pedagogik jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishga tizimli yondashuvning mazmun va mohiyatini quyidagi tamoyillar asosida ko‘rsatishimiz mumkin:

- pedagogik jarayon ishtirokchilari hisoblangan professor-o‘qituvchilar va talabalar mazkur jarayon subyektlari sifatida faoliyat ko‘rsatishi, ya’ni pedagogik jarayonlarda subyekt-subyekt munosabatlarining qaror topishi;
- pedagogik jarayon subyektlari faoliyatining maqsadga yo‘naltirilganligi, izchilligi va o‘zaro bog‘liqligi;
- majmuaviylilik — pedagogik jarayonlar o‘zaro bog‘liq va aloqador bo‘lgan komponentlar majmui ekanligi;
- integrativlik — harakatlanish va rivojlanishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi omillarning o‘zaro birligi;
- o‘zaro bog‘liqlik — pedagogik jarayonlar alohida bir tizim sifatida va yuqori tartibli yaxlit pedagogik tizimning tashkil etuvchi komponenti sifatida mavjudligi;
- kommunikativlik — pedagogik tizimning tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o‘zaro ta’sir etish xususiyatlariga ega ekanligi.

Pedagogik jarayonlar samaradorligi, ya’ni ta’lim-tarbiya jarayonlari natijaviyligi subyektlarning shaxsiy rivojlanishi va tayyorgarligining davlat ta’lim standartlari talablariga muvofiqlik darajasini belgilaydi. Ta’lim muassasasi faoliyatida vujudga kelayotgan pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo‘nalishidagi muammolarning ko‘pqirraliligi va murakkabligi, nafaqat pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishni sifat jihatdan o‘zgartirishni nazarda tutadi, balki uning mazmunini takomillashtirish zaruriyatini ham belgilaydi. Ta’lim muassasasini isloh qilish jarayonlari odatda lokal, alohida, qismlar bo‘yicha, ayrim professor-o‘qituvchilarning ijodiy-pedagogik faoliyati doirasida o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan yangiliklardan boshlanadi.

Til ta’limiga kompetensiyaviy yondashuv

Bilim, ko‘nikma va malaka hamda kompetensiya munosabati. Kompetensiya turlari. Lingvistik kompetensiya va uning turlari. Sotsiolingvistik kompetensiya va uning turlari. Pragmatik kompetensiya va uning turlari.

Mustahkamlash uchun savollar va javoblar:

1. Integrativ testlarga xos xususiyatlarni toping. bir-birini to'ldiruvchi fanlarning sinteziga asoslanib tuzilgan bo'lib, tayyorgarlik darajasi haqida umumlashgan yakuniy xulosa chiqarishga imkon beradigan test topshiriqlari sanaladi .

2. Kompetensiya qaysi javobda to'g'ri berilgan? Ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun bilimlar, amaliy malakalar va shaxsiy sifatlarni qo'llash qobiliyati

2-nazariy mashg'ulot. Ona tili va adabiyoti fanini o'qitishda zamonaviy baholash metodlari.

Ona tili fani o'qitishda darsda psixologik jarayonlar ham muhim rol o'ynaydi. O'qituvchida pedagogik mahorat bilan birga psixolog bo'lmog'i lozim. Bola psixologiyasini yaxshi tushungan o'qituvchi haqiqiy pedagog bo'la oladi. Har bir darslarda psixologik hamda innovatsion metodlarga vaqt ajratish darsning qiziqarli bo'lishiga, o'quvchining e'tiborini o'ziga tortishga, mavzuni yaxshi tushinishga qo'pol qilib aytganda uxlayotgan o'quvchining uyg'otishga juda katta yordam beradi va shu bilan birga o'quvchi qachon yana shu darsga kirar ekanmiz degan fikrni uyg'otishga sabab bo'ladi. Hozirgi vaqtda izlanuvchan va tajribali o'qituvchilar bilish faoliyatini jadallashtirishda ta'lim jarayonini didaktik o'yin bilan uyg'unlashtirib samarali natijalarga erishmoqdalar. Didaktik o'yinli dastur yangi mavzuni bayon qilish, mustahkamlash, bolalar bilimini sinab ko'rish va baholash jarayonida qo'llanilishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarni yakkama-yakka, keyinchalik guruhli o'yinlarga tayyorlashi, ular muvaffaqiyatli chiqqanidan so'ng ommaviy o'yin darslarini o'tkazishi kerak. Chunki, o'quvchilar didaktik o'yin darslarida ishtirok etish uchun kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni egallagan bo'lishlari zarur. Bolaning o'qituvchini aytganini takrorlab loqayd o'tirganidan ko'ra, qanday bo'lsa ham fikr yuritgani mehnat qilgani ma'qul. 1. "Kim hakam" Ona tili darsida o'tilgan mavzuni mustahkamlash

maqsadida “Kim hakam” o`yin metodini qo`llash ham yaxshi samara beradi. Bunda o`quvchilardan diqqat, tezkorlik, hozirjavoblik talab etiladi, O`quvchi fikrini jamlashga harakat qiladi. O`qituvchi tomonidan ma`lumotlar tezkorlik bilan o`qiladi. Bunda har bir guruh a`zolari to`g`ri ma`lumotlar uchun- “qizil kartochka”, noto`g`ri ma`lumotlar uchun-“sariq kartochka”larini ko`tarishadi. Natijalarni aniqlab borish uchun har bir guruhga nazoratchilar biriktiriladi. 2. “So`z va hodisalarni eslash”. Sinf o`quvchilari kichik guruhchalarga birlashtiriladi va har bir guruh bittadan so`z tanlaydi. 1. Daraxt, paxta so`zi bilan o`yin boshlanadi. Dovuchcha, danak, do`mbira, doira, do`lana, paxta, piyola, parta, pomidor kabi «d», «p» harflari bilan boshlanadigan so`zlar topiladi. 2. Daraxt, paxta so`zlarining birinchi bo`g`iniga da-, pax- bo`g`in qo`shib so`z hosil qilish. 3. Berilgan so`zlarga ohangdosh so`zlar topish: paxta, taxta, shaxta, vaxta, daraxt, karaxt kabi. 4. Berilgan so`zlar bilan bog`liq bo`lgan barcha so`zlarni eslash: paxta, momiq, chigit, shona, g`o`za, ko`sak; Daraxt, barg, gul, meva, danak, kurtak, tomir, ildiz 5. Berilgan so`zlar ichidan birini tanlash: paxta, xat, daraxt, xatar. 6. Berilgan so`zlar bilan bog`liq birorta hodisani eslash, hikoya, ertak, sarguzasht to`qishga harakat qilish. 7. Berilgan so`zlardan «Sinkveyn» tuzish. O`yin davomida mustaqil fikrlashni kimdir mantiq asosida quradi, kimdir so`zlarni tasodifan aytadi. Hozircha buning ahamiyati yo`q, muhimi u fikrlayapti, mustaqil mulohaza yurityapti. Bolaning o`qituvchini aytganini takrorlab loqayd o`tirgandan ko`ra qanday bo`lsa ham fikr yuritgani, mehnat qilgani ma`qul. 3. “Tez o`yla” metodi. 1. Tulki, sichqon, mazali non, dush, qochdi, dum, yong`oq; 2..Xurmo, malla soch, kamon, tush, afsus, daryo, osmon; 3. Taksi, kino, pul, sahifa, chipta, uyalib qoldik, sahna; 4. Ovchi, muzqaymoq, bo`ri, hayvonot bog`i, qafas, daraxt; 5. Tufli, koptok, erka, oyna, ertak, tosh. 4. “Begona” o`yin metodi Bunda beshta so`z bir tanish hikoyadan yoki ertakdan olinib, bitta so`z begona asardan olinadi. Masalan: “O`gay”, “Erka”, “Mehnatsevar”, “Sehrli sandiq”, “Ajdar” bitta “Kulol” so`z. Shu begona so`zdan ertakni davom ettirishadi. O`quvchi dasturda belgilangan bilimlarni kamida davlat ta`lim standarti talablari darajasida o`zlashtirishi kerak. Ona tili fanini o`qitish jarayoni o`quvchilarning til

bilish ko'nikmalarini rivojlantirish, madaniyati va adabiyoti bilan tanishtirish, shuningdek, ularning mantiqiy fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan. Quyida ona tili fanini o'qitishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan ba'zi asosiy jihatlar keltirilgan:

- O'quvchilarda ona tiliga bo'lgan qiziqishni oshirish.
- Til qoidalari, grammatik tuzilishlar va leksik boylikni o'rgatish.
- O'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish. Darslarni interaktiv metodlar, masalan, guruhli ishlar, muhokamalar va rolli o'yinlar orqali o'tish.
- O'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olib, darslarni shaxsiylashtirish.
- Turli xil manbalarni (kitoblar, maqolalar, video materiallar) ishlatish.
- O'qish. o'quvchilarni turli janrlardagi matnlarni o'qishga va tushunishga o'rgatish.
- Yozish. yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish (esse, insho, hikoya yozish).
- Tinglash. tinglab tushunish ko'nikmalarini shakllantirish.
- Gapirish. ochiq muloqot va munozaralar orqali og'zaki nutqni rivojlantirish.
- O'zbek adabiyoti va madaniyatiga oid asarlarni o'rganish.
- Mashhur yozuvchilar va shoirlar haqida ma'lumot berish.
- Raqamli texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash (onlayn resurslar, taqdimotlar).
- O'quvchilarga onlayn platformalarda (masalan, bloglar) yozishni o'rgatish.

O'quvchilarning bilimlarini baholashda turli xil usullarni (testlar, loyihalar, ijodiy ishlar) qo'llash.

Ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb qilish, ularning ona tiliga bo'lgan qiziqishini oshirish. Ona tili fanini o'qitishda yuqoridagi jihatlariga e'tibor berish, o'quvchilarning til bilish ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga yordam beradi. Ona tili fanini o'qitish jarayoni zamonaviy ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi. O'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni madaniyat va adabiyat bilan tanishtirish, shuningdek, mantiqiy fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini oshirishda zamonaviy metodlar katta ahamiyatga ega. Interaktiv ta'lim metodlari o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Guruhli ishlar, muhokamalar va rolli o'yinlar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etish, bir-biridan o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu metodlar yordamida o'quvchilarda jamoaviy ish ko'nikmalari, muloqot qobiliyati va tanqidiy fikrlash rivojlanadi. Har bir o'quvchining individual xususiyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlari turlicha bo'ladi. Differensiallashtirilgan ta'lim metodlari yordamida

o'qituvchi har bir o'quvchining darajasiga mos ravishda darslarni tashkil etishi mumkin. Bu yondashuv o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishlariga va muvaffaqiyatli natijalarga erishishlariga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar, masalan, interaktiv doskalar, kompyuter dasturlari va onlayn resurslar ona tili fanini o'qitishda samarali vosita hisoblanadi. O'quvchilar internet orqali turli manbalardan ma'lumot olish, onlayn platformalarda yozish va fikr almashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ularda raqamli savodxonlikni rivojlantiradi. Loyihaviy metod orqali o'quvchilar real hayotdagi muammolarni hal qilishda ishtirok etadilar. Ular o'zaro hamkorlikda loyiha ishlab chiqib, uni taqdim etadilar. Bu jarayon ijodkorlikni oshiradi va o'quvchilarga o'z fikrlarini ifoda etish imkonini beradi. Ona tili fanida kreativ yozish metodlari orqali o'quvchilar o'z ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Esse, hikoya yoki she'r yozish orqali ular til boyligini, grammatikani va stilistikani chuqurroq tushunadilar. Bu metod nafaqat til ko'nikmalarini, balki ijodiy fikrlashni ham rivojlantiradi. Ona tili fanini o'qitishda zamonaviy metodlar qo'llanilishi ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Interaktivlik, individual yondashuv, texnologiyalarni qo'llash, loyihaviy metod va kreativ yozish kabi usullar o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirishga, ularning muloqot qobiliyatini oshirishga va ijodkorlikni rag'batlantirishga yordam beradi. Zamonaviy metodlar yordamida o'quvchilar ona tilini nafaqat o'rganadilar, balki uning go'zalligini va ahamiyatini ham chuqurroq anglaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA HAVOLALAR

1. Erkaboyeva N. Q. Adabiyot fanidan savol-javoblar to'plami. T. "Navro'z", 2018.
2. Norova N.K. "Ona tili darslarida ta'limiy o'yinlarni qo'llashning ahamiyati. 2022.
3. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T., "Sharq", 2013.

AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-amaliy mashg'ulot. Zamonaviy dars turlari va shakllari.

Nutq soʻzlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi koʻrinishi boʻlib, u faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki ham ruhiyat, ham nafosat hodisasi hisoblanadi. Shuning uchun ham yaxshi nutq deyilganda aytilmoqchi boʻlgan maqsadning tinglovchi va kitobxonga toʻliq yetib borishi, ularga maʼlum taʼsir oʻtkazishi nazarda tutiladi. Shunga koʻra nutq oldiga maʼlum talablar qoʻyiladi. Bu talablar nutqning mantiq jihatdan toʻgʻri, aniq, chiroyli, erkin, maqsadga muvofiq boʻlishidir. Bu belgilar nutqning asosiy sifatlari, xususiyatlari deb qaraladi.

1. Nutqning toʻgʻriligi.

Nutqning toʻgʻriligi uning adabiy tili meʼyorlariga muvofiq kelishidir. Bunda quyidagi meʼyorlar hisobga olinadi.:

a) talaffuz meʼyorlari:

Unli va undosh talaffuzi, soʻz tarkibidagi qoʻsh va yondosh unlilar talaffuzi, tutuq belgili soʻzlar talaffuzi, kishilarning ism-familiyalari, qisqartma otlar, qoʻshma feʼllar, soʻz birikmalari, morfologik koʻrsatkichlar, soʻz yasovchi forma yasovchi qoʻshimchalar talaffuzlari.

b) morfologik meʼyorlar:

Adabiy til dialect va shevalardan oʻz morfologik meʼyorlariga koʻra ham farqlanadi. Buni biz adabiy tilda sozlarning kelishiklarda turlanishi, feʼllarning tuslanishi, son-miqdor tushunchalarning ifodalanish usullarida, shuningdek, soʻz va soʻz shakllarining yasaliş xususiyatlarida koʻramiz.

v) sintaktik meʼyorlar:

Ega-kesimning mosligi, ikkinchi darajali boʻlaklarning ularga bogʻlanish qonuniyatlari.

g) imloviy meʼyorlar:

Adabiy til yagona va umumxalq yozuv meʼyorlariga tayanadi. Bu meʼyorlar maxsus ishlangan va kelishilgan imlo qoidalarida oʻz ifodasini topadi. Adabiy til

imlo qoidolari bu til yozuvi, yozma shaklida foydalanuvchi barcha uchun umummajburiydir. Orfografik me'yorlar va bunga doir imlo qoidolari adabiy til yozma shaklining takomilida belgilangan omildir.

d) lug'aviy me'yorlar:

Har bir xalq tili o'sha millat a'zolarining erkin va bermalol fikrlasha olishi uchun yetarli bo'lgan so'z boyligiga ega. Bir tilga mansub bo'lgan bir sheva bu tilning boshqa guruh shevalaridan, jonli so'zlashuv tili esa adabiy tilda qo'llanuvchi so'zlar miqdori, xarakteri, shakli, hatto ma'nosiga ko'ra farqlanib turadi. Mana shunday xususiyat adabiy til bilan shevalar, jonli so'zlashuv tili bilan adabiy til doirasida ham mavjuddir. Demak, tildagi barcha sozlar adabiy tilda qo'llanilavermaydi.

2. Nutqning aniqligi.

Nutqning aniqligi tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar bilan ularning nutqdagi atamasi bo'lgan material o'rtasidagi mutanosiblikni taqozo qiladi:

- a) sinonimlardan o'rinli foydalanish;
- b) antonimlardan to'g'ri foydalanish;
- c) ko'chma ma'noli so'zlarni o'rinli qo'llash;
- d) so'z birikmalarini to'g'ri qo'llash;
- e) iboralarni to'g'ri qo'llash;

O'qituvchi nutqida atamalar va mutaxassislikka oid leksika asosiy o'rinni egallaydi. Ular o'quvchi bilimining dunyoqarashining bilishi hisoblanadi.

Fan sifatida o'zbek tilshunosligi ham boy atamalarga ega. Ularning bir qismi tilshunos olimlarimiz tomonidan ijod qilingan bu bir qismi boshqa tillardan to'g'ri yoki kalkalash (nusxa olish) orqali qabul qilingandir.

XX asrda xalqaro ilmiy aloqalar nihoyatda ravnaq topdi. Ayni til hodisasi bir necha atama bilan izohlanadigan holatlar nihoyatda ko'paydi.

Aniqlik nutqning muhim fazilatlaridan biri sifatida qadimdan ma'lum. G'arb mutafakkirlari ham, Sharq olimlari ham aniqlikni nutq sifatlarining birinchi sharti hisoblanganlar. Aristotel "Agar nutq noaniq bo'lsa, u maqsadga erishmaydi" degan bo'lsa, Kaykovus: "Ey, farzand, so'zning yuz va orqa tomonini bilgin. Ularga rioya qilgan, so'zlaganda ma'noli gapir, notiqlikning alomatidir". Agar gapirgan vaqtingda so'zning qanday ma'noga ega ekanligini bilmasang aniqlik nutqning tenbrlarini yaxshilash, diktsiyaga e'tibor berish, tovushlarning past baland tovlanib turishi, unli va undoshlarni talaffuz etish, ohang kabilar.

O'zbek adabiy tili og'zaki nutq texnikasini rivojiga o'zbek madaniyatining atoqli namoyondalari – shoirlar, yozuvchilar. Can'atkorlar, aktyorlar katta hissa qo'shadilar..

Yozma nutq texnikasi o'z mohiyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi.

1. Har qanday yozma nutq uchun zarur bo'lgan texnik xususiyatlar.

“Nutqning aniqligi so'zning narsa va hodisalardan aks etgan borliq belgilari bilan qat'iy mos kelinishidir”. Deydi rus tilshunosi V.N.Golovin.

Aniqlik ikki xil bo'ladi: narsaning aniqligi va tushuncha aniqligi. Narsa aniqligi nutqda aks etgan mavjudlikning narsalar, hodisalar doirasi bilan nusxa mazmunining munosabatida ko'riladi. Demak, mavjudlik narsalar, hodisalar orqali nutqda aniq aks etgan bo'lsa, bunday nutq aniq hisoblanadi.

Nutqning har tomonlama to'g'rib o'lishi uchun narsa aniqligining o'zi yetarli emas. Tushunchaviy aniqlik ham bo'lishi zarur. A.Qahhor “Men yozilgan sahifani hatto jumlani ham ustidan tuzata olmayman. Jumla hatto butun bir sahifaning bir so'zini o'chirib, o'rniga, boshqasini yozish uchun boshqa qog'ozga o'sha jumla, hatto sahifani ko'chirib yozaman. Nutq bilan qilingan mehnat dard va quvonchni yuzaga chiqara oladi” – degan edi.

Aniq nutq yaratish so'zlovchidan quyidagilarni o'rganish va ularga amal qilishni talab qiladi:

a) tilning sinonimik imkoniyatlarini bilish va sinonimik qatorlardan kerakli variantni ajratib nutqda qo'llash.

b) Nutqda ishlatiladigan so'zning otlashgan ma'nolarini har tomonlama bilish; nojiddiy, taxminiy qo'llashlardan qochish; chunki batayn soz qo'llash nutqni beburd qiladi;

c) So'zning ko'p ma'noliligiga jiddiy e'tibor berish, ko'p ma'noni soz nutqda qo'llanganda o'zining qaysi ma'noda ishlatilayotganligini aniq tasavvur qilish, fikr yuzaga chiqishida bu so'zning boshqa ma'no qirralari mon'elik qilish-qilmasligini ko'z oldiga keltirish; omonimlarning xususiyatlarini adabiy normadagi ifodalar bilan yetkazishidir. O'qituvchining tili hamma vaqt o'zbek adabiy tili normalarga sodiq qoladi, adabiy tilning go'zal va ta'sirchanligini o'zida saqlaydi. Adabiy til ma'lum qo'shimchalar, Grammatik kategoriyalarni qo'llanilishidagi bir xilligi, barqarorligi bilan umumo'zbek harakatlarida bo'ladi. Shevalardan ustun turadi. Uning ustunligini bir tomondan adabiy normalar belgilaydi.

3. Nutqning mantiqiyligi.

Mantiqiy nutq deb yaxlit bir tizim asosida tuzilgan, fikrlar rivoji izchil bo'lgan, har bir so'z, ibora maqsadga muvofiq ravishda ishlatiladigan nutqqa aytiladi.

Nutqning mantiqiyligi uning asosiy sifatlari – to'g'rilik va aniqlik bilan chambarchas bog'liqdir. Grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun noto'g'ri tanlangan lug'aviy birlik ham mantiqiylikni buzadi. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va o'quvchiga ifodalanayotgan fikrning to'liq borib yetmasligiga, ba'zan, umuman, anglashmasligiga olib kelishi mumkin.

Nutqning mantiqiy buzilishi, eng avvalo, so'zlovchi va yozuvchining tafakkur uquvi, qobiliyati bilan bog'liq. Shuning uchun mantiqiylik faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki tafakkur hodisasi ham sanaladi. Bunda mavzu bo'yicha mavjud bilim asosida mulohaza yurgizish diqqatga sazovordir.

So'zlarning o'zi ifodalanayotgan narsa-hodisalarga mos ravishda fikrning aniq ifodalanishi narsa mantiqiyligi bo'lsa, soz birikmalari, gaplar, hatto butun-butun matnlarning bir-biriga mosligi, fikrni izchil davom ettirishga bo'yundirilishi tushuncha mantiqiyligidir.

Mantiqiylik shartlari:

- a) tushunchalar mantiqiyligiga rioya qilish;
- b) uslubiy me'yorga amal qilish;
- c) leksik-semantik va sintaktik me'yorga rioya qilish.

Mantiqiyligiga putur yetgan gaplarga misollar:

- Olti oylik davlatga sut sotish rejasi bajarildi.
- U bir kitobga 5 so'mdan qo'yib sotmoqda.
- Akulalar tirik bola tug'adi.
- Erkak paypoqlar narxi 30 foizga arzonlashdi.

O'qituvchi nutqining mantiqiyligi. Nutqda bayon etilgan fikrning qismlari va alohida fikrning o'zaro mutanosibligi mantiqiyligi deb yuritiladi.

Mantiqli nutqda gaplardan fikrlar butun nutqdan kelib chiqadigan fikrning qismlari hisoblanadi. Ular orasida ziddiyat bo'lmaydi.

Mantiqiylik aniqlikka suyanadi. Noaniq nutq mantiqiy bo`la olmaydi. Nutqda mantiqlikka erishish uchun unda qo`llangan so`zlar bilan ularning predmetlik ma`nolari mos bo`lishi lozim.

So`zlar qat`iy aniqlikda qo`llanganda ham mantiqlik buzilishi mumkin, chunki aniqlik leksik nutq bilan mantiqiylik sintaktik qurilishi bilan bog`langandir. Mantiqiylikning predmet mantiqiyligi va tushuncha mantiqiyligi deb ikkiga ajratish mumkin. Predmet mantiqiyligi nutqda til birliklarining o`zaro ichki munosabatlari mosligidan iborat.

Tushuncha mantiqiyligi mantiqiy fikr tuzilishi hamda bu tuzilishning nutqdagi til belgilari ma`no aloqalaridan iborat.

Mantiqiylikni ta`minlash 2 shartga asoslanadi. Birinchisi, ekstrolingvistik shart. Bu shart to`g`ri mulohaza qilishning normalari va printsiplarini egallashni taqozo etadi. To`g`ri nutq uchun kurashuvchi eng avvalo, mantiqiy fikrlashni o`rganishi lozim.

Ikkinchi shart sof lingvistik bo`lib, nutqiy tuzilish belgining bir-biriga zid bo`lmasligini, mazmuniy bog`liqligini uyushtiruvchi til vositalarini bilishni talab qiladi.

4. Nutqning sofliigi.

G`ayri adabiy til unsurlaridan holi bo`lgan nutq sof nutq deyiladi.

Nutqning sofligiga quyidagilar putur yetkazadi:

- a) dialektalizmlar;
- b) g`ayri tildan olingan so`zlar;
- c) jargon va argolar;
- d) vulgarizmlar;
- e) parazit so`zlar.

5. Nutqning ta`sirchanligi.

Tinglovchi va o`quvchi ruhida o`zgarish, hayajon yasovchi nutq ta`sirchan nutq deyiladi. Bunday nutq oldiga quyidagi talablar qo`yiladi:

- a) tinglovchi e`tiborini tortish;
- b) tinglovchi qiziqishini oshirish;

- c) nutq dalil, isbot misollarning yetarli bo'lishini ta'minlash;
- d) fikrni bayon etishda qiziqarli shakllardan foydalanish;

2-amaliy mashg'ulot. Savod o'rgatish metodikasining ilmiy, lingvistik va psixologik asoslari.

Tayanch tushunchalar: O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risi"dagi Qonundagi ta'lim prinsiplari:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar demokratik xarakteri;
- ta'limning uzluksizligi;
- umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi va ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'limi standartlari (DTS) doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Mustaqil O'zbekistonning ravnaqi uchun olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-ma'naviy sohalardagi keng ko'lamli ishlar, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni ta'limning barcha bo'g'inlarida ona tili o'qitishni ham tashkiliy, ham mazmuniy jihatdan qayta ko'rib chiqishni taqazo etadi.

Globalashuv davrida ta'lim sohasida dunyo fan yutuqlari, texnologiyalardan foydalanish qanchalik zarur bo'lsa, tarbiya sohasi esa milliy-madaniy qadriyatlarga tayangan holda olib borishni taqozo etadi.

Ta'limda – dunyoviylik, tarbiyada esa milliy ma'naviy qadriyatlarni hisobga olish, o'zligimizni yanada boyib, yangilanib borishiga xizmat qiladi. Bu ta'limda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashda ham hisobga olinishi muhim, deb o'ylaymiz.

Bugun globallashuv sharoitida ta'lim-tarbiya sohasida ayrim muammolar mavjudligini hisobga olish lozim.

Birinchidan, ta'lim va tarbiyadagi ayrim uzilishlar bilan bog'liq ob'ektiv va sub'ektiv holatlar, ya'ni ta'limni tarbiyadan yoki tarbiyani ta'limdan orqada qolishi ayrim insonlar va yoshlar hayotida kuzatiladi.

Ikkinchidan, tarbiya jarayonida so'z va ishning bir-biridan farq qilish holatlari mavjud. Bu qonunga rioya etmaslik, adolat prinsiplarini buzish, loqaydlik, insonlar hayotiga befarq qarash bilan bog'liq ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari nosog'lom mahalliychilik, urug'-aymog'chilik, tanish-bilishlik holatlari ham ta'lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchidan, ta'lim-tarbiya jaryonidagi ayrim muammolar xalqimizning milliy madaniy merosi va qadriyatlarini, urf-odat va an'analari bilan bog'liq ortiqcha moddiy harajatlarga yo'l qo'yishlar bilan bog'liq.

To'rtinchidan, yoshlarning ta'lim olish, bilim sirlarini egallash, bugungi zamon talablariga javob beradigan kasb-hunarga ega bo'lish talabining ayrim yoshlarning hayotida hisobga olinmaslik xolati saqlanib qolmoqda. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishga bo'lgan intilishning etishmayotganligi xolatlari mavjud.

Beshinchidan, globallashuv tufayli zamonaviy internet tarmoqlari orqali turli hil saytlarda yoshlarning o'zaro muloqotidagi tarbiyaga zid bo'lgan nosog'lom ko'rinishdagi munosabatlarning shakllanayotganligi tarbiyaning milliy ma'naviy negizlariga to'g'ri kelmaydi.

Bunda mana shunday zararli va yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda yoshlarda mustaqil fikr, va dunyoqarashga ega bo'lib, zararli g'oyalarni farqlashlari uchun g'oyaga qarshi g'oya bilan javob bera olish madaniyatini shakllanib borishi ham muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim tarbiya jaaryonlarida yangi pedtexnolgiyalarni qo'llash zamon talabiga aylandi. Bu ta'lim jarayonini hozirgi fan texnika yutuqlaridan orqada qolmasligi uchun uning talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tarbiyalashni taqozo etadi. Bu o'qituvchilar oldida ham yangi talablarni qo'yadi. Zamonaviy o'qituvchi kelajak bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi ekanligini chuqur his etishi lozim. Bu undan mustaqillik tafakkuriga va zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lishni taqozo etadi.

Xulos qilib aytganda, globallashuv jarayoni ta'lim-tarbiya bilan o'zaro munosabatda bo'ladi, bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, mamlakatimizda demokratik jamiyat qurish vazifalarini amalga oshrishda ta'lim-tarbiyani tubdan isloh etish va uni modernizatsiyalashtirish muhim rol o'ynaydi.

Uchinchidan, globallashuv davrida o'qituvchining pedagogik jarayondagi asosiy vazifalari o'zgaradi. Uni boshqaruvchanlik faoliyatiga yangicha talablar qo'yiladi. Boshqarish – bu yo'naltirish, vazifa qo'yish, o'rganish, yordam berish va qo'llab-quvvatlashni hamda maslahat berish, rahbarlik qilish, kuzatish, talab qilish, ko'rsatma berishlari o'z ichiga oladi. Ta'lim-tarbiyada donishmand va mutafakkirlarning, xalqimizning milliy ma'naviy qadriyatlariga tayanish muhim ahamiyaiga ega.

To'rtinchidan, ta'lim-tarbiya jaryonidagi o'zgarishlar talabalar yoshlar oldiga ham muhim vazifa qo'yadi. Ular izlash, kerakli bilimlarni mustaqil qidirib topish, axborot to'plash va ularni ishlata bilishlari bilan bog'liq.

Umuman olganda globallashuv davrida ta'lim-tarbiya jarayoni zamon qo'yayotgan talablarga javob berishi, undan orqada qolmasligi muhim ahamiyatga ega. Bu mamlakatimizda belgilangan demokratik jamiyat qurish vazifalarini amalga oshrishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sohasidagi yutuqlar taraqqiyotning kaliti bo'lsa, tarbiya sohasidagi o'ziga xoslik O'zbekistonni mustaqil taraqqiyot yo'lidan rivojlanishini kafolatlab beradi.

O'qituvchi bamisoli bog'bon. U yoshlik gulshanining bog'boni. Maktab, o'quv yurti– o'quv gulshani, yosh avalod uning bebaho nihollari, ustoz - o'qituvchilar esa bu bog'ning oqil, mirishkor, mehribon bog'bonlaridir. U o'z bog'idagi mevalarning rango-rang va sog'lom bo'lishi uchun kurashadi. Har bir shogirdini baxtiyor ko'rishni orzu qiladi. Daraxtni shirin meva, o'qituvchini esa oqil, barkamol shaxs bezaydi.

Davlatda yuz bergan tub o'zgarishlar tufayli adabiyot o'qitish metodikasiga yangicha yondashuv zarurligi. Adabiyotni o'rgatishning qonuniyat va yo'llari bilan faqat "Adabiyot o'qitish metodikasi" fani shug'ullanishi, uning millat ma'naviyatini shakllantirishdagi alohida o'rni. Adabiyot o'qitish metodikasining o'z tadqiqot manbai, bu manbaning ijtimoiy ahamiyati va bu fanning kuzatish, anketa so'rovi, maktab hujjatlarini o'rganish, o'quvchilarning yozma ishlarini tadqiq etish, og'zaki javoblarni tekshirish singari qator ilmiy-tadqiqot metodlari borligi. Millatning taraqqiyoti uning ma'naviyatiga, milliy ma'naviyat esa adabiy ta'limga bog'liq ekani xakida fikr yuritiladi..

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari belgilangan bo'lib, unda ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi: ta'limning uzluksizligi va izchilligi: umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi: ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi: davlat ta'lim standartlari (DTS) doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi: ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabalishtirilgan yondashuv: bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish: ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruni uyg'unlashtirish o'z ifodasini topgan.

Til o'qitishda til va nutq hodisalarining farqiga etmaslik ko'pgina chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda. Til va nutq tushunchalarini bir-biridan ilmiy asosda farqlash uni o'qitish metodikasi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Chunki til birliklarining grammatik belgilarini, birikuvini va vazifasini bilishning o'zi mazkur tildagi nutqni egallash uchun etarli emas. Asosiy maqsad tilning grammatik qurilishi asosida nutq faoliyatini egallash bo'lganligi sababli, mashg'lot materiallarini tanlash, darslarni tashkil etish ishlari o'quvchi va talabaning nutqini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim. Shuning uchun til ma'ruza orqali emas, balki nutq ko'rinishlarini tahlil qilish, so'z birikmasi va gap modellarini o'zlashtirish, esda saqlash orqali o'rganiladi.

Hozirgi dolzarb masalalardan biri o'zbek tilining kasb - hunar, ilm- fan va texnika tili sifatidagi lisoniy asosini kengaytirish, atamalarini boyitishdir. Uzoq - yillar bu soha chetda qolib keldi. Keyingi -yillarda bu sohada burilish yuz berdi: tilimizning kasb-hunar va ilmiy-texnika tili va atamalarida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Adabiy tilimizdagi mazkur yangilik va o'zgarishlarning asoslarini o'quvchi to'g'ri anglashini maqsad qilib, unga dastur va darsliklarda alohida o'rinlar ajratiladi.

"Ona tili" darslarida uzundan- uzoq, murakkab grammatik qoidalarni, "O'zbek adabiyoti" darslarida ijodkor hayotidagi o'tkinchi sana va voqealarini yodlashga majbur qilmasdan, balki ona tilida sof so'zlash, o'z fikrini to'g'ri ifodalay olish, mustaqil fikrlash, badiiy asarni ifodali o'qish, uning ruhini his qilish, san'atidan lazzatlanish, so'zdan zavqlanish ruhida ta'lim bermoq kerak. Ona tili adabiyot o'qitishdan pirovard natija - shu!

Shunday qilib, ona tili o'qitishning samarali bo'lishi ko'p jihatdan uni adabiyot bilan bo'g'lab olib borishga bog'liq, yoki aksincha. Aslida, ona tili adabiyot darslarida ham o'rganiladi. Masalan, badiiy asarning tilini tahlil etish davomida ba'zi grammatik shakllarning uslubiy ahamiyati, sinonimlarning nutqda tutgan o'rni va hokazo: o'quvchi va talabalar tilning turli ifoda vositalari bilan

tanishib boradilar. Badiiy asar tili bo'yicha muayyan bir izchillikda olib borilayotgan ishlar o'quvchi va talabalarning so'z boyligini oshiradi va nutqini o'stiradi. Adabiy asarning tasviriy vositalari bo'yicha sinfda va undan tashqari bajarilgan ishlar natijasida o'quvchi va talabalar so'z haqida, uning turli nutq uslubidagi o'rni haqida kengroq tushunchaga ega bo'la boradilar. Xilma-xil ifoda jilolari tilning estetik ta'siri va ahamiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Ona tili o'rta maktab, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida o'rganiladigan barcha fanlarni puxta o'zlashtirish uchun muhim "kalit" sanaladi. Til vositasida o'quvchi va talaba boshqa fanlarni o'rganadi. Barcha fanlar yuzasidan fikrni yozma va og'zaki ravishda bayon qilish orqali u o'z ona tilini ham mukammal o'rganib boradi.

Ta'limning natijasi va samarasi – ta'lim asosida qanday shaxshning yetishib chiqishi ham, ta'limning mazmuni, usuli-yu vositalari ham ta'lim maqsadi bilan belgilanishi, ta'lim maqsadi, mazmuni, usul-u vositalari hamda ta'lim jarayonida o'quvchi va o'qituvchi munosabatalari uzviy bog'lanishda mukammal bir tizimni tashkil etishi umumdida tamoyillardan biridir /Qar.:4,8-10;/. Shuning uchun umumta'lim maktablarida "Ona tili" o'quv fanining umumiy maqsadi ham, unga bog'liq ravishda ona tilidan har bir dars maqsad-u mazmuni, usul-u vositalari ham shu umumiy maqsadga bo'ysuntirilishi, mana shu umumiy maqsadning amalga oshishiga xizmat qilmog'i kerak.

O'zbek tili va adabiyotidan ta'lim maqsadini bu tarzda belgilashda diqqatga sazovor va oldimizga alohida mas'uliyat qo'yuvchi omil shundaki, maqsadning bunday belgilinishida biz uzoq yillar davomida ko'nikkan savodxonlikni ta'minlash, yozma va og'zaki nutqni o'stirish-u rivojlantirish emas, balki o'quvchilarda **"i j o d i y l i k, m u s t a q i l f i k r l a s h ... ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish"** **b i r i n c h i o' r i n g a** qo'yilib, "i, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon, ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish" ikkinchi o'ringa ko'chirilgan. Nega ona tili ta'limi maqsadida bunday keskin o'zgarish sodir bo'ldi va bu nima beradi? Axir, ona tili talimining azaliy maqsadi savodxonlik va nutq o'stirish emasmi? Haqiqatan ham, ona tili ta'limi oldidan savodxonlikni ta'minlash – ta'lim oluvchiga imloviy va tallafuziy me'yorlarni bilish va nutqda ularga rioya qilish ko'nikmalarini singdirish mas'uliyatini hech kim va hech qachon soqit qilmagan va qilmaydi ham. Lekin bu maqsad ona tili ta'limining boshlang'ich ta'lim bosichi oldida turgan bosh va asosiy vazifadir. Umumiy o'rta ta'limning tayanch o'rta ta'lim (V-IX sinflar) bo'g'inida savodxonlikni ta'minlashlashning uzluksiz davomi sifatida 11-16 yoshli o'smirlarning ongida sodir bo'ladigan ruhiy va fiziologik o'zgarishlarga muvofiq

ravishda (ularda zotiy, ontlogik ravishda ijodiylikka intilish hislarining rivojlanish kuchayishi sababli) ijodiylik va musataqil fikrlash ko'nikmalari ta'limning bu bo'g'inida birinchi o'ringa ko'chirilgan. Ikkinchidan, ma'lumki, nutq - bu fikrning bevosita moddiy ko'rinishda voqelanishi, yuzaga chiqishidir. Agar o'quvchida ijodiylik va mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllanmagan va rivojlanmagan bo'lsa, uning nutqi faqat retroskopik (reproduktiv) - oldin o'qigan yoki eshitgan bilimni takrorlashdan iborat bo'lishi mumkin, xolos. Bunday holat sovet ta'lim tizimi uchun me'yoriy va talab qilinadigan edi – o'quvchi darslik beradigan o'quv materialni, ma'lumotlarni bilsa, bas! Chunki bu ta'lim tizimi bilimdon ijrochi shaxsni yetishtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yardi. Shuning uchun oldingi davr ta'limi haqida gapirib Yurtboshimiz mazkur ma'ruzalarida: “Umumn, maktabda bolalar mustaqil fikr yuritishga o'gatiladimi? Aminmanki, o'rgatilmaydi,” – deb alohida ta'kidladilar. Bugungi kun talabi esa ijodiylik, izlanuvchanlik, mustaqil fikrlash qobiliyatini birinchi o'ringa qo'yib, bilimni ikkinchi o'ringa qo'yadi – mustaqil fikrli izlanuvchan shaxs har bir muayyan sharoitda zarur bilimlarni axborot manbalaridan osonlikcha topa oladi va ularni muayyan sharoitda qo'llab, undan amaliy foydalana oladi. Shuning uchun birinchi Prezidentimiz o'z ma'ruzalarini bu masalani alohida ta'kidladilar: “Agar bollar erkin fikrlashga o'rganmasa, berikgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Abatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z qo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir.”

Mana shuning uchun umumiy o'rta ta'limning tayanch bo'g'inida – Y-1X-sinflarda ona ili ta'limi maqsadida birinchi o'ringa ijodiylik, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish va ikkinchi navbatda endi **ijodiy, mustaqil fikr mahsulini to'g'ri va ravon** ifodalash ko'nikmalarini singdirish qo'yildi. Mana shunday talab ta'limning bu bo'g'inida ona tili ta'limi usulini **retroskopik** (reproduktiv) metoddan – bilim berish usulidan tamoman boshqa usulga **kognitiv** metodga – bilim olish usuliga ko'chirishni talab qildi. Bu esa, o'z navbatida, maktabda ona tili ta'limi vositalari, xususan, o'quvchi va o'qituchi, ta'lim vositalari - o'quv material, dars va darslik munosbatlarini batamom o'zgartirdi, ona tili o'qituvchilariga alohida mas'uliyat yukladi – ular tamoman yangi ta'lim usullarida ishlashlari ona tili darslarini yangicha tashkil etishlari lozim. Demak, Masala, eng avvalo, o'qituvchiga borib taqaladi. Muxtaram birinchi **Prezidentimiz: “Zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiynin o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak”**–deb bejiz aytmagan. Hozirgi kunda o'qituvchilarimizning asosiy ko'pchiligi bolalarga kognitiflik (ya'ni bolaning ma'lum mavzu bo'yicha izlanishni boshqarish-yo'naltirish va xulosalash, qo'llash) asosida ta'lim berish malakasiga ega

emas. Ular darslik doirasiga, darslik materiallari asosida ishlashga odatlanganlar. Hozirga darslik esa o'qituvchiga o'quv materialini, masalan, topish, saralash bo'yicha faqat namuna va yo'llanma beradi, xolos. Oldin o'quvchining bilimi darslik materiali bilan cheklanardai. Endi esa, tamoman aksi – darslik materiali faqat namunagina, xolos. Oldin o'qituvchi o'quvchiga biror topshiriq yoki savol berganda o'quvchining qanday javob berishi o'qituvchiga ma'lum edi. Endi esa bunday emas. Ayrim masalalarda o'qituvchi o'quvchining undan ilgari ketganlifini tan olmog'i lozim. Tabiiyika, masalan, it (yoki qovun, uzum...) turlarini atovchi so'zlarni topib kelish va ma'molarini izoxlash topshirig'ini olgan sinfdagi 25-30 o'qituvchi kattalar va mutaxassislariga murojaat qilib, har biri 10tadan so'z topib kelsa, 200-300 so'z ustida ishlaydi. Albatta bu so'zlarning barchasi o'qituvchiga tanish emas. O'qituvchi buni tan olishi, o'qituvchining izlanish kashfiyotlarini rag'batlantirishi lozim. Hozir esa, ko'p hollarda, aksincha. SHuning uchun o'qituvchining o'zi har bir mashg'ulotga puxta tayyorlanishi, darslik o'quvchi uchun mavzu ustida ishlashga beradigan yo'llanmalar ustida atroflicha o'ylashi mumkin.

Amaldagi darsliklar bilan amalyotch o'qituvchilarimizning bevosita sinflarda ishlashlarini kuzatish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, juda ko'p hollarda berilgan mashqlarni muhtaram o'qituvchilarimiz o'z saviya va didlariga moslari bilan almashtirib, dastur va darslik maqsadini buzadilar, kognitiv ta'limni retroskopik bilim olish bilan almashtiradilar. 2000-2001 o'quv yilida bir maktabda 5 sinf darsligining yaroqsizligi masalasi ko'tarildi. Ishga o'qituvchilargina emas, balki bolalarning ota-onalari aralashdilar. Tanishdik, tahlil etdik. Masala bunday bo'lgan bo'lgan ekan; 5sinf darsligining 203-mashqida shunday topshiriq berilgan: "So'z juftlari berilgan qatorlarni o'qish: a , i , u, o', unlilarning talaffuziga e'tabor bering" va to'rt qatorga ajratilib, 15 juft so'z berilgan. O'qituvchi nima qilishi kerak edi v anima qilganki, maktabda va oilalarda darslikka nisbattan "isyon" ko'tarilgan.

Muxtaram ustoz darsga tayyorlanmay kelgan va odaticha (so'zlar ro'yxatini ko'rgach): "bu so'zlarni qo'llab bittadan gap tuzing!" amrini bergan. O'qituvchilar bir soat vaqt sarflab, 10-15 so'zni qo'llab gaplar tuzganlar va qolgan so'zlar ustida "ish"ni uy vazifasi sifatida olib tarqalishgan. Lekin uyda *kir, kul, qir* kabi omonim (shakldosh)so'zlar ustida ish jarayonida ota-onalariga murojaat qilganlar. Ular esa bunaqa topshiriqdan g'azablanishgan va norozilik bildirishgan.

Til talimining bugungi yetakchi ta'lim usuli - kognitiv ta'lim usulidan yetarli darajada xabardor emas. Shuning uchun eng avvalo, ta'limning usullari, jumladan, retroskopik (reproduktiv) va kongitiv ta'limning o'zi – har birining maqsadi,

tarkibiy qismlari, vositalari, natijasi bilan tanishib o'tamiz. Eng avvalo, o'qituvchilarimiz uchun deyarli tushnarli bo'lmagan **kognitiv usul** atamasi haqida. Chunki amaldagi ona tili dasturida: "Ta'lim usuli, asosan, induktivdir" /2,59/ deb ochiq ravshan yozilib, kognitivlik haqida hech nima deyilmagan.

Shuning uchun, eng avvalo, dasturdagi 'induktiv' va biz qo'llayotgan "kognitiv" atamalarini o'zaro munosabatini shathlashimiz lozim. Chunki, dasturning takomillashtirilgan variantida ham shu – induktiv atamasi saqlandi. Vaholanki, ta'lim usullari (metodlari) sirasida **induktiv** deb ataladigan metod y'oq va bo'lmagan: bizda didaktik adabiyotlarda, asosan, ta'limning uch metodi – reproduktiv (retroskopik) ko'rgazmali bayon, muammoli va tadqiqiy kabi turlari ajratiladi, xolos. Ularning ichida na kognitiv, natijada induktiv ta'lim usullari eslatiladi.


Insnoyat paydo bo'lib ta'limni yo'lga yo'lga qoy'gan beri, unda ikki tushuncha – bilim berish (o'qitish, o'rgatish), va bilim olish (bilim hosil qilish, o'rganish) usullari farqlanadi. Shu nuqtayi nazardan didaktik adabiyotlarda ko'p martalab keltirilgan bir voqea va bir rivoyatni yana bir eslatib o'tish foydadan xoli bo'lmaydi.

“AQLIY HUJUM” STRATEGIYASI

Strategiya o'quvchi (talaba)larni mavzu xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, o'z tasavvurlari, g'oyalaridan ijobiy foydalanishga doir ko'nikma, malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. U yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlarda ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha orginal (o'ziga xos) echimlarni topish imkoniyati tug'iladi. Strategiya mavzu doirasida ma'lum qarashlarni aniqlash, ularga muqobil g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.



Mashg'ulotda strategiyani qo'llashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:




Grafik organayzer o'quvchi (talaba)larda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va echish qobiliyatini shakllantiradi. Uni qo'llashda o'quvchi (talaba)larda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma'lumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

Undan foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi:

- 1) o'qituvchi o'quvchi (talaba)larni GOni qo'llash sharti bilan tanishtiradi;
- 2) o'quvchi (talaba)lar kichik guruhlariga biriktiriladi;
- 3) guruhlar topshiriqlarni bajaradi;
- 4) guruhlar o'z yechimlarini jamoaga taqdim etadi;
- 5) jamoa guruhlarining yechimlari yuzasidan muhokama uyushtiradi.

O'quvchi (talaba)lar topshiriqlarni quyidagi tasvir asosida bajaradi:




“Baliq skeleti” grafik organayzeri (go) “barcha omillarni hisobga ol!”

“BILAMAN. BILISHNI XOHLAYMAN. BILIB OLDIM”

(BBB) GRAFIK ORGANAYZERI

Grafik organayzer o'quvchi (talaba)larga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Uni qo'llashda o'quvchi (talaba)lar guruh yoki jamoada ishlashlari mumkin. Guruhda ishlashda mashg'ulot yakunida guruhlar tomonidan bajarilgan ishlar tahlil qilinadi.


Guruhlar faoliyati quyidagi ko‘rinishda tashkil etilishi mumkin:



O‘quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog‘ozida o‘z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Grafik organayzerdan foydalanish uch bosqich asosida amalga oshiriladi:



Bosqichlar bo'yicha amalga oshirilgan harakatlarning tafsiloti qo'yidagicha:

- 1) o'quvchi (talaba)lar kichik guruhlariga biriktiriladi;
- 2) o'quvchi (talaba)larning yangi mavzu bo'yicha tushunchalarga egalik darajasi o'rganiladi;
- 3) o'quvchilar tomonidan qayd etilgan tushunchalar loyihaning 1-bandiga yozib boriladi;
- 4) o'quvchi (talaba)larning yangi mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi;
- 5) o'quvchi (talaba)larning ehtiyojlari sifatida bayon etilgan tushunchalar loyihaning 2-bandiga yozib qo'yiladi;
- 6) o'qituvchi yangi mavzuga oid umumiy ma'lumotlardan o'quvchilarni xabardor

“BLITS-SO‘ROV” METODI

“Blits-so‘rov” (inglizcha “blits” – tezkor, bir zumda) metodi berilgan savollarga qisqa, aniq va lo‘nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod sanaladi. Ta’lim muassasalarida ushbu metodga muvofiq savollar, asosan, o‘qituvchi tomonidan beriladi. Berilgan savollarga javoblar jamoaviy, guruhli, juftlik yoki individual tarzda qaytarilishi mumkin. Javob qaytarish shakli mashg‘ulot turi, o‘rganilayotgan mavzuning murakkabligi, o‘quvchi (talaba)larning qamrab olinishiga ko‘ra belgilanadi.

Mashg‘ulotlarda metodni qo‘llash quyidagicha kechadi:

O'qituvchi o'rganilgan mavzu, muayyan tarkibiy qismlar mohiyatining ochib berilishini talab etadigan savollarni ishlab chiqib, o'quvchilar e'tiboriga havola qiladi



O'quvchi (talaba)lar berilgan savolga qisqa muddatda lo'nda, aniq javob beradi




Guruh (juftlik)da ishlashda bir nafar o'quvchi berilgan savolga javob qaytaradi (uning guruhdoshlari javobni to'ldiradi, (biroq, fikrlar akrorlanmasligi lozim)

tasvir (jadval, diagramma) tarzida yoritilishi mumkin.

“VENN DIAGRAMMASI” GRAFIK ORGANAYZERI


Grafik organayzer o'quvchi (talaba)larda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. U kichik guruhlarini shakllantirish asosida aniq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

Yozuv taxtasi o'zaro teng to'rt bo'lakka ajratiladi va har bir bo'lakka quyidagi sxema chiziladi:



Grafik organayzer o'quvchi (talaba)lar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Uni qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat:



Grafik organayzerni qo'llash jarayonida har bir guruh muayyan mavzuga oid topshiriqlarni bajaradi. O'quvchi (talaba)larning e'tiborlariga quyidagi jadvalni taqdim etish mumkin:


Guruhlar	Diagrammaning tartib raqami	Topshiriqlar mazmuni
1- guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
2-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
3-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
4-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	

“VIDEOTOPISHMOQ” STRATEGIYASI


So‘nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalar (kompyuter, televidenie, radio, nusxa ko‘chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta’lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘qituvchilar oldida o‘qitishda turli axborot vositalaridan o‘rinli, maqsadli, samarali foydalanish vazifasi turibdi.

Strategiyadan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

O‘quvchi (talaba)larga o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriyl yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish qilinadi



O‘quvchi (talaba)lar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganligini izohlaydi




Videolavhalar namoyish qilingach, o'quvchi (talaba)lardan lavhada qanday jarayon, hodisa yoki voqelik aks etganligi, qaysi badiiy asar qahramoni yoki tarixiy shaxs ifodalanganligi yuzasidan mushohada yuritish talab qilinadi. Videotopishmoqning javobini topish orqali quvchi (talaba)lar o'rganiladigan yangi mavzu haqida tasavvurga ega bo'ladi.

“GUGURT DONALARI” STRATEGIYASI

“Gugurt donalari” strategiyasi o'quv materiallarining o'quvchi (talaba)lar tomonidan o'rganilgan qay darajada egallanganligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Strategiya o'quvchi (talaba)larga o'quv materialining mavzusidan kelib chiqqan holda turli muammoli masala yoki vaziyatlarni yaratish, mavzuning asosiy tayanch tushunchalarini ajratib olish, ularni izohlash, tahlil qilish, ta'riflashda yordam beradi. SHuningdek, strategiya mashg'ulot davomida har bir o'quvchi (talaba)ga turli topshiriqlarni individual bajarish, uning ustida mustaqil ishlash imkonini beradi. Bu strategiya o'quvchilarda bir qator tarbiyaviy xarakterdagi, ya'ni: mustaqil ishlay olish; muloqatga kirishuvchanlik; xushfe'llik; o'zgalar fikrini hurmat qilish; faollik; faoliyatga ijodiy yondashish; faoliyatning samarali bo'lishiga qiziqish va intilish; o'zini o'zi baholash kabi sifatlarni shakllantirishga yordam berdi.

Strategiya qo'llanilgan mashg'ulot o'quvchilarni o'rganilgan yoki o'rganilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib fikrlash, o'zlashtirilgan bilimlarni yodga olish, to'plangan fikrlashni umumlashtirish, ularni yozma ravishda yoki rasm, chizma, tasvir, sxema, model ko'rinishida ifodalashga o'rgatadi. Mazkur strategiya juftlik, kichik guruhlar yoki jamoada tashkil etiladi. O'quvchi (talaba)lar tushunchalarni yozma ravishda ta'riflaydi va ularni taqdimot asosida jamoaga namoyish qiladi.

Mashg'ulotda strategiyani qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:




Izoh: o'quvchi (talaba)lar tomonidan tanlangan har bir gugurt donasi yoki oddiy cho'p bittadan tushunchani ta'riflash shartligini anglatadi. SHunga ko'ra o'quvchi (talaba) agarda ikkita gururt donasini tanlagan bo'lsa, u holda ikkita tushunchani ajratib ko'rsatib, ularni ta'riflaydi. Gururt donalari sonining ortib borishiga ko'ra tushunchalar soni va ularga beriladigan ta'riflar miqdori ham ko'payib boradi.

“YAGONA DAVRA” STRATEGIYASI

“YAgona davra” strategiyasi o'quvchi (talaba)larda o'rganilayotgan mavzu yuzasidan mustaqil, mantiqiy fikrlash, boshqalar tomonidan bildirilayotgan fikrlarni tinglash, ularni to'ldirish, shaxsiy fikrlarni asoslash, xulosa chiqarish qobiliyatini tarbiyalashga xizmat qiladi. Mavzu yuzasidan har bir o'quvchi (talaba)ning fikrini bilish muhim. SHuning uchun har bir o'quvchi (talaba) fikr bildirayotganda uning so'zini bo'lish, qo'shimcha qilish hech hech kimga, hatto o'qituvchiga ham ruxsat etilmaydi.

Strategiyani qo'llashda quyidagi shartlarga rioya etish shart:




O'qituvchi muhokamaning yakunida bildirilgan fikrlarni umumlashtirishi, har bir o'quvchi (talaba)ning ishtirokini ko'rsatib o'tishi mumkin. Strategiya, odatda, mashg'ulotning boshlanishi yoki yakunida qo'llaniladi.

“DEBAT” METODI

“Debat” (fransuzcha “debattere” so'zidan olingan bo'lib, “debats” – “bahslashmoq”) texnologiyasi yig'ilish, majlis yoki mashg'ulotlarda biror-bir mavzu yuzasidan ishtirokchilar o'rtasida o'zaro bahs uyushtirish, ularning o'zaro fikr almashishlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'quv mashg'ulotlarida debat quyidagi tartibda uyushtiriladi:



“YELPIG‘ICH” STRATEGIYASI

Murakkab va ko‘p tarmoqli bo‘lib, muammoli vaziyatlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan ushbu texnologiyaning mohiyatiga ko‘ra mavzuning bndlari, bo‘limlari bo‘yicha ma‘lumot beriladi. Band va bo‘limlar alohida-alohida muhokama qilinadi. Masalan, ma‘lum hodisa, voqea yoki jarayonning ijobiy, salbiy jihatlari, foydasi, zarari, afzalligi, kamchiligi ko‘rsatib beriladi.


Strategiya o‘quvchi (talaba)larda tanqidiy, tahliliy, mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish, shaxsiy g‘oyalarni yozma va og‘zaki shaklda ixcham bayon etish, uni samarali himoya qilish ko‘nikma, malakalarini shakllantirishga imkoniyat yaratadi.

“Yelpig‘ich” strategiyasi yordamida o‘zlashtirilayotgan mavzuning muayyan jihatlarini jamoa, guruh, juftlik hamda har bir qatnashchining individual faol ishlashi asosida o‘rganishga xizmat qiladi.

Texnologiyani nafaqat ta‘lim, shu bilan birga ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar jarayonida ham qo‘llash mumkin. Bunda o‘quvchi (talaba)larning quyidagi sifat va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga erishiladi: jamoa bilan ishlash; muammo va vaziyatlarni turli nuqtai nazardan muhokama qilish; kelishuvchan

qarorlarni qabul qilish; o'zgalar fikrini hurmat qilish; xushmuomalalik; faoliyatga ijodiy yondashish; faollik; muammoga diqqatni jamlay olish va b.

Ta'lim jarayonida muayyan mavzuni o'rganish chog'ida strategiyani turli bosqichlarda aniq maqsadlar asosida qo'llash mumkin. Masalan:



“YOZMA ISH” STRATEGIYASI

Strategiya o'quvchi (talaba)larda mustaqil, ijodiy fikrlash malakalarini shakllantirishga yordam beradi va har bir o'quvchini mustaqil ravishda faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Ta'limda strategiyani qo'llashda o'quvchi (talaba)larga quyidagi sxema asosida ish ko'rish taklif qilinadi:

1. Kim yoki nima haqida yozmoqchi ekanligingizni aniq belgilab oling!
2. Insho (hikoya, maqola) uchun mos sarlavha toping!
3. Insho (hikoya, maqola)ning qoralamasi (xomaki nusxasi)ni tayyorlang!
4. Insho (hikoya, maqola)ning xomaki nusxasini qayta o'qib chiqib, xatolari bo'lsa tuzatish kiriting!

Strategiya asosida ishlash uchun o'quvchi (talaba)larga 9-10 daqiqa vaqt beriladi.

Uni kichik guruhlarda ham qo'llash mumkin. Bunda o'quvchi (talaba)larni guruhlariga biriktirish uchun raqamli kartochkalardan foydalanish qulay. Har bir kichik guruh alohida mavzular asosida hikoya, esse yoki maqolalarni tayyorlashi mumkin. Hikoya, esse yoki maqolalarni tayyorlashda guruh a'zolarining birgalikda, o'zaro fikr almashib faoliyat yuritishlariga erishish maqsadga muvofiqdir. Belgilangan vaqt nihoyasiga etgach, har bir guruhning ishi taqdimot asosida namoyish etiladi. O'qituvchi hikoyaning mazmuni, saviyasi va orfografik xatolariga e'tibor bergan holda guruh ishini baholaydi.

Strategiyani qo'llash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Har bir o'quvchi (talaba), juftlik yoki guruhga o'rganilgan mavzuga oid bir nechta tayanch tushuncha yoki mavzular yozilgan kartochkalar tarqatiladi

O'quvchi (talaba), juftlik yoki guruhlar kartochkada ko'rsatilgan tushuncha yoki mavzulardan birini tanlab, u asosida kichik hikoya, esse yoki maqola tayyorlaydi

Agar o'quvchi (talaba), juftlik yoki guruhlariga bir necha tayanch tushuncha (so'z)lar taqdim etilsa, yaratilgan hikoya, esse va maqolalarda ushbu tayanch tushunchalar ishtirok etishi zarur

Har bir o'quvchi (talaba), juftlik yoki guruh hikoyaning avval qoralamasini yozadi

Har bir o'quvchi (talaba), juftlik yoki guruh o'zi tomonidan tayyorlangan hikoya, esse yoki maqolani tekshirib chiqib, oqqa ko'chiradi

Hikoya, esse yoki maqola tayyorlash uchun har bir o'quvchi (talaba), juftlik yoki guruhga avval o'zi bilgan, tanigan, eshitgan, o'qiganlarini yodga olish va ular haqida yozish tavsiya etiladi

“JADVAL” GRAFIK ORGANAYZERI

Grafik organayzer o‘quvchi (talaba)larda o‘rganilayotgan mavzu, muhokama etilayotgan masala yoki muammoning nazariy mohiyatini jadval yordamida aks ettirish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo‘llashda o‘quvchi (talaba)lar mavzu (masala, muammo) mohiyatini og‘zaki bayon yoki yozma matn ko‘rinishida emas, balki asosiy g‘oya, tayanch tushuncha, muhim jihatlarni jadvalda aniq, qisqa ifodalash ko‘nikmalarini o‘zlashtiradi.

Mashg‘ulotda grafik organayzerni qo‘llash bo‘yicha o‘quvchi (talaba)larga quyidagi jadval namunasini taqdim etish mumkin:

Mohiyati	Ijtimoiy tarbiya turlari				
	Ma’naviy- axloqiy tarbiya	Aqliy tarbiya	Jismoniy tarbiya	Estetik tarbiya	Mehnat tarbiyasi
Maqsadi					
Vazifalari					
O‘ziga xos jihatlari					


“ZAKOVATLI ZUKKO” STRATEGIYASI

Bilimlarni puxta o‘zlashtirishda o‘quvchi (talaba)larning fikrlash, tafakkur yuritish qobiliyatlariga ega bo‘lishlari muhim ahamiyatga ega.

Ushbu strategiya o‘quvchi (talaba)larda tezkor fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Uni qo‘llash o‘z xohishiga ko‘ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko‘rish istagida bo‘lgan o‘quvchi (talaba)lar uchun qulay imkoniyatni yaratadi.


Bunda o‘quvchi (talaba)lar o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to‘g‘ri, aniq javob qaytara olishlari zarur. Murakkablik darajasiga ko‘ra har bir savolga qaytarilgan to‘g‘ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning o‘rtacha arifmetik qiymatini topish asosida o‘quvchi (talaba)larning tafakkur tezligi aniqlanadi.

Mashg'ulotlarda strategiyani qo'llash orqali o'quvchi (talaba)larning tafakkur tezligi quyidagi sxemaga asoslanuvchi faoliyat yordamida aniqlanadi:




“ZINAMA-ZINA” STRATEGIYASI

Strategiya o'quvchi (talaba)larda o'rganilayotgan mavzuni kichik mavzularga ajratilgan holda rasm, tasvir, jadval yoki slaydlar asosida o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, u o'quvchi (talaba)larda mavzuni o'rganishga ijodiy yondashish, shaxsiy fikr, o'zlashtirilgan tushunchalarni tasviriy ko'rinishlarda ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Undan foydalanish tartibi quyidagicha:



Mashg'ulotlarda strategiyani qo'llashda quyidagi shartlarga amal qilinadi:



“INSERT” GRAFIK ORGANAYZERI

Grafik organayzer yangi mavzu bo'yicha o'quvchi (talaba)larning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash, ularda matnga nisbatan tahliliy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Uni qo'llashda o'quvchi (talaba)lar qo'yidagi sxemalar bilan ishlaydi:


1. Matn guruhlarining fikrlari bilan qiyosiy taqqoslanganda:

Maxsus belgilar	Maxsus belgilarning ma'nosi
Z	Matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o'z aksini topgan bo'lsa
S	Matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o'z aksini topmagan bo'lsa
?	Matn bilan tanishish jarayonida savollar tug'lsa (tushunmovchiliklar yuzaga kelsa)

2. Liderlarning hisobotidan so'ng guruhlarining natijalarini o'rganish chog'ida:

Maxsus belgilarning tartib raqamlari	Guruhlarining nomlari			
	Kopernik	Galiley	Forobiy	Ibn Sino
1.				
2.				

Ushbu grafik organayzerni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:




Strategiya bir-birlari bilan tanish bo'lmagan o'quvchi (talaba)lar o'rtasida o'zaro muloqotni tashkil etish, ularning bir-birlari bilan yaqindan tanishishlari uchun zarur sharoitni yaratib berish maqsadida qo'llaniladi.

Uni qo'llashda bir-birlarini yaxshi tanimaydigan juftliklar tuzilib, o'quvchi (talaba)larning tanishib olishlari uchun 2-3 daqiqa vaqt beriladi. So'ngra juftlikning har bir a'zosi jamoaga biror qiziqarli dalil yordamida o'z sherigi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadi. Bunda guruhdagi har bir o'quvchi (talaba)ning bir nafar kishi bilan tanishishi nazarda tutiladi. Strategiya o'quvchi (talaba)da dadillik, jur'atni hosil qiladi. Biroq, bu metodni 25 nafardan ortiq a'zosi bo'lgan guruhlarda qo'llash samarali hisoblanmaydi.

“Intervyu” strategiyasidan bolalar oromgohlari, volontyorlik guruhlari, umumiy oʻrta taʼlim maktablari, oʻrta maxsus taʼlim muassasalari, oliy oʻquv yurtlari hamda taʼlim oluvchilardan iborat yangi ijtimoiy guruhlar tashkil etilganda foydalanish samarali sanaladi.

“Intervyu” strategiyasi quyidagi sxema asosida qoʻllaniladi:



Taʼlim jarayonida ushbu strategiya juftlik asosida mavzu boʻyicha oʻquvchi (talaba)lar tomonidan oʻrganilgan bilimlarning namoyish etilishini taʼminlash maqsadida qoʻllaniladi. Bunda juftlikdagi oʻquvchi (talaba)larning biri “Muxbir”, ikkinchisi esa “Taniqli shaxs” boʻlishi lozim. Intervyu jarayonining har ikki qatnashchisi ham mavzuni yaxshi oʻzlashtirgan boʻlishi shart. “Muxbir” oʻrganilgan mavzu yuzasidan savollar toʻplamini ishlab chiqadi, “Taniqli shaxs” esa savollarga javob bera olishi lozim. Savollar va ular yuzasidan berilgan javoblarni yozma shaklda qisqacha bayon etish maqsadga muvofiqdir. Zero, belgilangan vaqt nihoyasiga etgach, har bir “Muxbir” jamoa aʼzolarini oʻzi tuzgan savollar, ular yuzasidan “Taniqli shaxs” bergan javoblar bilan tanishtiradi. Barcha “Muxbir”larning chiqishlari tinglangach, jamoa aʼzolari oʻqituvchi rahbarligida eng maqbul savollar toʻplamini, savollarga berilgan eng toʻgʻri, batafsil javoblar variantlarini

aniqlab, g'oliblarni belgilaydi. Jamoaning fikrini inobatga olgan holda o'qituvchi g'oliblarni e'lon qiladi.


“Intervyu” strategiyasini oliy o'quv yurtlari, o'rta maxsus ta'lim muassasalarida seminar mashg'ulotlari, umumiy o'rta ta'lim maktablarida esa to'garak, ilmiy jamiyatlar faoliyati, “Ma'naviyat soati” (yoki “Sinf (guruh) soati”)da faol va samarali qo'llash mumkin.

KBI (“KUZATISH, BAHSLASHISH, ISHONTIRISH”)


STRATEGIYASI

Strategiya o'quvchilarni hayotda o'z o'rinini topish yo'lida faollik ko'rsatishga rag'batlantirib, ularda etakchilik, sardorlik sifatlari, jamoada ishlash ko'nikmalari, o'zgalar fikrini hurmat qilgan holda o'z pozitsiyalarini himoyalash, fikrini isbotlay bilish, asoslash, ishontirish, munozara olib borish, murosaga kelish, ijodiy izlanish kabi qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mashg'ulotda mazkur strategiyani qo'llashda quyidagi shartlarga rioya etiladi:



Strategiyadan foydalanish tartibi quyidagicha:




Izoh: har bir guruh o'z chiqishida tanlagan savol bo'yicha tushunchalari, mavzuga yondashuvlari, javoblarining to'g'ri ekanligiga jamoa a'zolarini ishontira olishlari zarur.


“KLASTER” GRAFIK ORGANAYZERI

“Klaster” (g'uncha, to'plam, bog'lam) grafik organayzeri puxta o'ylangan strategiya bo'lib, uni o'quvchi (talaba)lar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlarda qo'llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

Grafik organayzerdan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:



Grafik organayzer yordamida o'quvchi (talaba)lar topshiriq bo'yicha fikrlarini klaster (mayda, alohida qismlar) tarzida quyidagicha ifodalaydi:



“KUBIK” GRAFIK ORGANAYZERI

Grafik organayzer turli vaziyatlarni hosil qilish orqali mavzuning o'rganilishini osonlashtirishga xizmat qiladi. Kubikning oltita qirrasida o'rganiladigan mavzu (muammo)ni chuqur tahlil qilishga yordam beradigan tushuncha (yo'nalish)lar mavjud. Grafik organayzer mohiyatiga ko'ra kubikning oltita qirrasida quyidagi ko'rsatmalar o'z ifodasini topadi:

Izoh: “Kubik”ning olti qirrasidagi ko'rsatmalar quyidagi ma'nolarni anglatadi:

1. Tasvirlang! Predmetni diqqat bilan ko'zdan kechirib, uning nimaligini tasvirlab bering! Tasvirlash jarayonida predmetning rangi, shakli va hajmini aniq yoritishga e'tibor qaring!

2. Taqqoslang! Taqqoslash asosida predmetning nimaga o'xshashi, nimadan keskin farqlanishini ayting!

3. Izohlang! Predmetning bunday tuzilma, hajm, shakl va rangga egaligining sabablarini tushuntiring! Predmet Sizni nimalar haqida o'ylashga majbur etayapti? Xayollaringizga erk bering! (Tasvirlangan predmetlar bir-birlariga o'xshashi, bir-biridan keskin farqlanishi mumkin).

4. Tahlil qiling! Predmetning yasash (yaratilish) jarayoni qanday? (Predmetning yasashini bilishingiz shart emas, buni o'ylab toping!).

5. Qo‘llang! Predmetdan Siz hayotiy jarayonlarda foydalana olasizmi? Undan qanday foydalanishingiz mumkin?


6. Asoslang! Predmetning amaliy qiymatini belgilovchi fikrlaringizni asoslang! Bu jarayonda ishonchli dalilllar topishga harakat qiling!

Grafik organayzer o‘quvchi (talaba)larni muayyan muammo (mavzu)ni olti tomondan turlicha yondashib, muhokama qilishga undaydi. Bu harakat muammo echimini topishni tezlashtiradi.

“TEST” TEXNOLOGIYASI

“Test” (inglizcha “sinov”, “tekshirish”) texnologiyasi shaxsning psixologik, fiziologik va shaxsiy xususiyatlari, intellektual salohiyati, qobiliyati, ko‘nikma va malakalarini baholashga xizmat qiladi. Texnologiya o‘quvchi (talaba)lar tomonidan muayyan mavzu mazmuni yoki fan asoslarining qay darajada o‘zlashtirilganligini aniqlashda samarali hisoblanadi.

Mashg‘ulotlarda texnologiyadan foydalanish quyidagicha kechadi:



Grafik organayzer tayanch tushunchalarni bir-biri bilan o‘zaro solishtirish, qiyoslash asosida o‘rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini bir necha asosiy belgilarga ko‘ra batafsil yoritish maqsadida qo‘llaniladi. Ko‘p hollarda grafik organayzer mavzu mazmunida yoritiladigan bir necha holatlarning afzallik yoki kamchiliklarini, samaradorli yoki samarasizligini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo‘llaniladi.

Mashg‘ulotlarda “T-jadval” grafik organayzeridan foydalanish uchun o‘quvchi (talaba)larning e‘tiboriga quyidagi sxema taqdim etiladi:

O‘rganilayotgan masala (g‘oya, omil)	
Afzalligi	Kamchiligi
1.	1.
2.	2.
3.	3.

Xulosa qilib aytish mumkinki, har bir interfaol metod ta’lim-tarbiya sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o‘qituvchi (pedagog) va ta’lim oluvchi (o‘quvchi, talaba)lar, o‘quvchi (talaba) va o‘quvchi (talaba)lar guruhi, shuningdek, jamoa o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirish, g‘oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta’lim oluvchi (o‘quvchi, talaba)ning ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo‘lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega.

VI. KEYSLAR BANKI

Mini-keys 1.

Ona tili va adabiyot fanini o'ziga xosligi bilan boshqa fanlardan ajralib turadi. Bunda nutq imkoniyatlarini yuzaga chiqarish omillari asosiy maqsad qilib belgilanadi. Ana shu omillarni yuzaga chiqarish usuli tamoyil asosida tayyorlang.

1. Ona tili o'qitish naziriyasini haqidagi ma'lumotlarni o'rganib chiqing.
2. Adabiyot o'qitish nazariyasini eslang.
3. Har ikkala fan tabiatini o'zaro qiyoslang.

Mini-keys 2

Ona tili va adabiyot fanlarining tabiatini turli yondashuvlar asosida o'rganing. Faraz qilaylik, ona tili fani uchun ma'lum bir qonunyati Siz uchun notanish. Bu esa o'z navbatida ba boradagi ishingiz natijasi qoniqarli bo'lmasligiga sabab bo'ladi. Bunday sharoitda Siz qanday yo'l tutasiz?

1. Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang.
2. Bu borada bajaradigan ishlaringiz ketma-ketligini belgilang.

VII. GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Aralash model Mixed model	Masofaviy ta'limning turli shakllari, bir necha shakllarning integratsiyasiga asoslangan model	Model based on various forms distance learning and integration of some forms
Aralash o'qitish Blended learning	Onlayn o'quv materiallari hamda o'qituvchi rahbarligida guruhda ta'lim olishga asoslangan o'qitish shakli	A form of teaching based on a group learning under the supervision of a teacher using online study materials
“Assesment” texnologiyasi “Assessment technology”	Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta'minlovchi topshiriqlar to'plami	A set of assignments intended for comprehensive assessment of skill and competence level of students
Axborotli loyihalar Information projects	O'quv jarayonini tashkil etish yoki boshqa ta'limiy xarakterga ega buyurtmalarni bajarish maqsadida nazariy axborotlarni yig'ishga yo'naltirilgan loyihalar	Projects intended for collecting theoretical information aiming at realization of scientific projects or organization of educational process
Validatsiya Validation	Ta'lim mahsuloti, ta'lim xizmatlari yoki ta'lim tizimi iste'molchilari ehtiyojlarining qondirilishi	Satisfaction of interests of customers in educational and service system
Vebinar texnologiya Webinar technology	Web texnologiyalar asosi (onlayn tadbirlar va ta'lim vositalari yordami)da tashkil etiladigan seminar, konferensiya, bahs-	Broadcasting organized via Internet transmitting live seminars, conferences, debates, presentations, negotiations, meetings,

	munozara, uchrashuv, taqdimot, trening, turli voqea yok hodisalar bo'yicha Internet tarmog'i orqali tashkil etiladigan to'g'ridan to'g'ri uzatiladigan lavha (translyasiya)lar	trainings, various events with the help of Web technologies
Dars ishlanmasi Lesson planning	Ta'limiy mazmunga ega loyiha va o'qituvchi tomonidan tuzilishi majburiy bo'lgan hujjat	An obligatory document completed by a teacher and a project that has educational essence
Dasturiy ta'lim Program education	1) o'qitishning talaba, talabalar ehtiyoji, qiziqishi, bilimi, dunyoqarashi, ular tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirishda duch kelish ehtimoli bo'lgan muammolar, o'quv fanining imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim; 2) pedagogik texnologiyalaridan biri	1) education organized considering interests and needs, outlook of students, problems that appear in assimilation of study materials by students, and opportunities of the academic subject; 2) one of the pedagogical technologies
Dramatik o'yinlar Dramatic games	Psixologik hamda ijtimoiy masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan o'yinlar	Games intended for solving psychologic and social issues
Didaktik o'yinlar Didactic games	O'rganilayotgan ob'ekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida talabalarning bilishga bo'lgan qiziqishlari, faolliklarini oshiradigan o'quv faoliyati turi	A type of a study activity that increases activeness, interest of students in getting knowledge based on the modeling of processes, events, objects that are being studied
Ijodiy loyihalar	Indiviual yoki hamkorlik	The projects intended to

Creative projects	asosida ijodiy xarakterga ega yangi ta'lim mahsulotlari (ijodiy hisobot, ko'rgazma, dizayn, videofilm, nashr ishlari – kitob, almanax, buklet, albom, bosma va elektron jurnal, kompyuter dasturlari kabilar)ni yaratishga yo'naltirilgan loyihalar	creat new educational products (activity report, exhibition, design, videofilm, publishing works: books, literary miscellany, pamphlets, albums, printed and electronic journals, computer programmes) that have creative characteristics based on cooperation and individual activity
Imitatsion o'yinlar Imitation games	Ishlab chiqarish korxonalari, ish o'rinlari, firmalar, tashkilotlarda xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni imitatsiyalash (taqlid qilish, ko'chirish) asosida talabalarni muayyan amaliy yoki kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashga yo'naltiradigan o'yinlar	Activities aimed at effective preparing students for certain activities based on imitation of activity carried out by employees of organizations, companies, factories
Invigilator Invigilator	Masofaviy ta'lim asosida tashkil etiladigan o'qitish natijalarini nazorat qiluvchi mutaxassis-pedagog	A specialist-pedagog who controls the results of teaching in the frames of distance learning
Individual ta'lim Individual education	Ta'lim jarayonida o'qituvchining faqatgina bir nafar talaba bilan yoki talabaning ta'lim vositalari (adabiyotlar, kompyuter, televidenie, radio va b. axborot texnologiyalar) bilano'zaro hamkorligi asosida o'quv	Education aimed at developing of mastering skills of a student in cooperatuion with a single student or educational means (literature, computer, television, redio, etc.) during educational

	materiallarining o'zlashtirilishini ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim	process
Innovatsion ta'lim Innovative education	Talabada yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim	Education that allows to develop skills and qualities f a student
Innovatsion faoliyat Innovative activity	YAngi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmualar muammolarini echishga qaratilgan faoliyat	An activity carried out for solving a set of problems that occur as a result of rejecting new developing ideas or inappropriateness of new social requirements to traditional standards
Innovatsiya Innovation	Muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat	An activity aimed at changing the internal structure of a certain system
Interfaol ta'lim Interactive aducation	Talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarini o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim	The education based on organization of interaction in mastering by students certain moral qualities, skills and knodlegde
Ishbilarmonlik o'yinlari	Ma'lum faoliyat, jarayon yoki munosabatlar mazmunini yoritish, ularni	Activities organized in order to master skills in running a certain activity,

Business games	samarali, to'g'ri, oqilona uyushtirishga doir ko'nikma, malaka va sifatlarni o'zlashtirish maqsadida tashkil etiladigan o'yinlar	process or relationships and their effective and proper organization
“Keys-stadi” texnologiyasi “Case study” technology	Muammoli vaziyat; talabalarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya	A technology that forms skills in earching for proper variants by analizing created or authentic dilemma (problematic situation) or problems
Kompyuter ta'limi Computer education	Talabalarning o'qish, mustaqil ta'lim va o'z-o'zini nazorat qilishni o'z ichiga oladigan bilish faoliyatini boshqarishda pedagogning axborotlarni to'plash va uzatishdan iborat faoliyatining modeli sifatida kompyuter texnikasi, telekommunikatsiya vositalari hamda dasturiy-metodik ta'minot asosida tashkil etiladigan ta'lim	The education organized based on the computer technologies, telecommunication means and programme and methodological provision as an activity model of a pedagog that comprises collecting and transferring information in controlling the activity of an independent education and self-control of students
Kompyuter ta'limi texnologiyalari Computer education technologies	Talabalarning o'qish, mustaqil ta'lim va o'z-o'zini nazorat qilishni o'z ichiga oladigan bilish faoliyatini boshqarishda pedagogning axborotlarni to'plash va uzatishdan iborat faoliyatining modeli sifatida kompyuter texnikasi, telekommunikatsiya	A set of forms, means and methods of education organized based on the computer technologies, telecommunication means and programme and methodological provision as an activity model of a pedagog that comprises collecting and transferring

	vositalari hamda dasturiy-metodik ta'minot asosida tashkil etiladigan ta'limning shakl, metod va vositalari majmui	information in controlling the activity of an independent education and self-control of students
Konsorsium Consortium	Masofaviy ta'limni tashkil etuvchi ikki universitetdan iborat birlashma	A union of two universities that organize a distance learning
Loyihalash Projecting	Boshlang'ich ma'lumotlar, aniq belgilangan vaqt, maxsus tanlangan shakl, metod va vositalarga tayanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali avvaldan faoliyat modelini tuzish, faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat	An action aimed at developing the essence of an activity or process, activity model by assuming, predicting, planning an expected result based on the initial information, specifically chosen form, method and means
Loyiha Project	Aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli	A result of an action aimed at developing the essence of pedagogical activity based on a certain plan, aim and by guaranteeing its effectiveness
Loyiha metodi A method of project	O'quv jarayonini individuallashtirish, talabaning o'zini mustaqil namoyon qilishini rejalashtirish, o'z faoliyatini oqilona tashkillashtirish va nazorat qilish imkoniyatini beradigan ta'lim metodlari majmui	A set of educational methods that allow individualization of educational process, independent planning of students' performance, control and proper organization of an activity

Loyiha ta'limi A study of project	Ta'limiy xarakterdagi aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ta'lim	Education aimed at developing the essence of pedagogical activity by guaranteeing the effectiveness of a plan and aim that have educational characteristics
Masofaviy ta'lim Distance learning	Muayyan nuqtadan axborot-kommunikatsiya vositalari (video, audio, kompyuter, multimedia, radio, televidenie va b.) yordamida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, ta'limiy mahsulotlarni tarqatish va etkazib berishdagi an'anaviy hamda innovatsion shakl, metod, vositalarga asoslangan holda ta'lim resurslaridan foydalanishga yo'naltirilgan ta'lim	Education aimed at using study resources based on innovational form, method and means in organizing study services, expanding and delivering study products with the help of certain information communication means (video, audio, computer, multimedia, radio, television, etc.)
Masofaviy ta'lim texnologiyalari Distance learning technologies	Ta'limning belgilangan mazmun asosida amalga oshirilishini ta'minlashga yo'naltirilgan shakl, metod va vositalar majmuasidir	A set of forms, methods and means used for increasing effectiveness of education and educational process
Mahorat darslari Master classes	Ochiq tashkil etilib, ilg'or pedagogik tajribalarni targ'ib etishga yo'naltirilgan samarali o'qitish shakli	An effective form of teaching organized to spread progressive pedagogical experiences
Moderator Moderator	Masofaviy ta'lim negizida tashkil etilayotgan seminar, trening, davra suhbatlari va forumlarga boshchilik qiluvchi (boshqaruvchi)	A pedagog leading seminars, trainings, debates and forums organized in the frames of distance learning

	pedagog	
Modellashtirish Modeling	Hodisa, jarayon yoki tizimning umumiy mohiyatini to'la yorituvchi modelni yaratish	Developing a model that discloses principal essence of an event, process and system
Model Model	Real, haqiqatda mavjud bo'lgan ob'ektning soddalashtirilgan, kichraytirilgan (kattalashtirilgan) yoki unga o'xshagan nusxasi	A simplified or lessened copy of a real and authentic object
Modernizatsiya Modernization	Ob'ektning yangi talablar va me'yorlar, texnik ko'rsatmalar, sifat ko'rsatkichlariga mos ravishda yangilanishi	Renewal of the object according to the new requirements, quality indicators and technical regulations
Modul Module	1) tizim ichidagi o'zaro chambarchas bog'liq elementlardan iborat tugun; 2) muayyan texnologiyani tashkil qiluvchi tarkibiy bo'laklarni ifodalovchi atama; 3) o'quv materialining mantiqan tugallangan birligi	1) units that consists of interrelated elements in the system; 2) notion meaning parts that create a certain technology; 3) logically completed units of study materials
Modul ta'limi A study of module	O'quv jarayonini tashkil etishning muayyan shakli bo'lib, unga ko'ra o'quv materiali mantiqiy tugallangan birliklari – modullarga asoslangan holda ma'lum bosqich va qadamlar asosida o'zlashtiriladi	A certain form of organization of educational process, according to which the logically completed units of study materials are mastered based on the certain stages and steps

Muammoli vaziyat Dilemma	Talabalarning ma'lum topshiriqlarni bajarish (masalani echish, savolga javob topish) jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatni anglashi bilan bog'liq ruhiy holati bo'lib, u hal etilayotgan masala bilan bog'liq yangi bilimlarni izlashni taqozo etadi	It is a psychological state of a student that is related with tension that occurs during a process of accomplishing the assignments, and it requires to master skills, knowledge for successful and effective accomplishment
Muammoli ma'ruza A problem lecture	O'qituvchi tomonidan talabani muammoli vaziyat, muammoli masalani hal etishga yo'naltirish orqali unda bilish faolliyatini oshirishga yo'naltirilgan ma'ruza	A lecture aimed at increasing students' study activity in solving an issue or dilemma
Muammoli ta'lim Problem education	Talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim	Education aimed at developing students' competence and skills in carrying out creative researches, promoting certain theories, reasoning the results, coming to some conclusions
Muammoli ta'lim texnologiyalari Problem education technologies	talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan ta'lim	The technologies that develop students' competence and skills in carrying out creative researches, promoting certain theories, reasoning the results, coming to some conclusions

	texnologiyalari	
Muammo Problem	Hal qilinishi muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan masala	an issue that has practical and theoretical significance and needs to be dealt with or solved
Mustaqil ta'lim Independent learning	OTM talabalarida pedagog rahbarligi va nazorati ostida o'quv hamda mutaxassislik fanlari bo'yicha ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarida egallangan BKMni mustahkamlash, boyitish, ular tomonidan yangi BKMni mustaqil o'zlashtirilishini ta'minlash, ularni kasbiy faoliyatni mustaqil tashkil eta olishga tayyorlashga yo'naltirilgan ta'lim	education aimed at preparing the students of higher educational institutions for independent organization of professional activity, self-mastering and improving skills and competence obtained in lectures, seminars and practical lessons on specialized study subjects under the supervision and control of pedagogs
Novatsiya Novation	Tizimdagi ayrim elementlarnigina o'zgartirishga xizmat qiluvchi faoliyat	An activity that serves to change certain elements in the system
Pedagogik muammo Pedagogical problem	Hal qilinishi zarur, biroq, hali echish usuli noma'lum bo'lgan pedagogik xarakterdagi masala	A pedagogical issue that must be solved but has uncertain ways of solution
"Portfolio" Portfolio	Avtobiografik xarakterga ega hujjatlar to'plami	A set of autobiographical documents

Repetitorlik ta’limi Tutoring	Individual ta’limning eng ommalashgan zamonaviy turi	A modern type of popular individual learning
Rivojlanish Development	SHaxsning fiziologik hamda intellektual o’sishida namoyon bo’ladigan miqdor va sifat o’zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon	A complicated process of qualitative and quantitative changes in individual’s physiological and intellectual development
Rivojlantiruvchi ta’lim Developing education	Talabalarning ichki imkoniyatlari rivojlantirish va ularni to’la ro’yobga chiqarishga yo’naltirilgan ta’lim	Education aimed at revealing and developing students’ inner capacities
Rolli o’yinlar Role-playing games	Ma’lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holati, xatti-harakatlar mohiyatini ochib berishga yo’naltirilgan o’yinlar	Activities that allow to explore the psychological state and actions of an individual when accomplishing the assignments and obligations
Syujetli o’yinlar Plot games	Pedagogik voqelik, hodisalar bayonining muayyan izchilligi va unda ishtirok etayotgan shaxslar faoliyatining o’zaro bog’liqligiga asoslangan o’yinlar	Activities that are organized based on the interrelation of activities of individuals who participate in pedagogical situations
Tadqiqot loyihalari Projects of research works	Ilmiy izlanish xarakteriga ega loyihalar	Projects that have scientific study characteristics
Ta’lim jarayonini	O’qituvchi tomonidan talabaning muammoni	A targeted educational activity organized in order

loyihalashtirish Projecting the educational process	izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkillashtirishdan to ommaviy baholashgacha bo'lgan mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyati	to develop students' skills in carrying out independent actions to plan and organize activities and its assessment
Ta'lim innovatsiyalari Educational innovations	Ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida echish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar	Forms, methods and technologies that are used for innovative solutions to existing problems in learning process or educational sphere and that guarantee effective results
Tayanch konspekt Reference conspect	Nazariy o'quv materiali (axboroti)ni grafikli tasvir (qisqa xulosa, tushuntiruvchi surat, shartli ramz, sxema, javal, grafik chizma va b.)da ifodalovchi konspekt	A conspect about theoretical learning materials (information) depicted with graphic pictures (brief conclusion, explaining pictures, signs, schemas, charts)
Ta'lim tizimini modernizatsiyalash Modernization of educational system	Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini, jamiyat va davlatning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olish bo'lgan talabini qondirish yo'lida uzluksiz ta'lim tizimini barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab chiqilishi yoki	Improving or developing an existing mechanism in order to provide sustainable development of continuous educational system that meets students' needs and interests as well as society's social, economic and cultural and country's skilled personal needs

	takomillashtirilishi	
Texnologik model (pasport) Technological model (passport)	Ta'lim yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbirning asosiy ko'rsatkichlari va ularning texnologik tavsifini yorituvchi hujjat	A document that reveals main indicators of education or spiritual and educational events and their technological characteristics
Texnologik xarita Technological map	Ta'lim jarayonni bajaruvchi yoki ma'lum ob'ektga texnik xizmat ko'rsatuvchi pedagoglarga taqdim etiladigan barcha zarur ma'lumotlar, ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan hujjat	A document that comprises all necessary information that is represented to pedagogues that lead educational process or those who carry out technical services to a certain object
Tyutor Tutor	O'quv kurslari uchun interfaol metodlarni tanlovchi, ma'ruza o'qituvchisi bilan talaba o'rtasida ta'limiy aloqani o'rnatuvchi ustoz, murabbiy	A teacher, coach who uses interactive methods for courses and establishes learning communication between a student and lecturer
Uzoqlashtirilgan auditoriyalar Distant auditoriums	Bir oliy o'quv yurtida tashkil etilayotgan o'quv kurslari, ma'ruza va seminarlarning undan uzoq masofada joylashgan ta'lim muassasalarining o'quv auditoriyalariga telekommunikatsiya vositalari orqali sinxron teleko'rsatuv, videoanjuman va radio eshittirish ko'rinishida uzatilishi	A transmission of courses, lectures and seminars to classrooms or lecture halls in remote places organized in universities (colleges) via telecommunication means in the form of synchronous TV or radio programs, video forums

Fasilitator Facilitator	Masofaviy ta'lim xizmatidan foydalanayotgan guruhlarining faoliyatini natijasini muammoning ilmiy echimini topishga yo'naltiruvchi, guruhlarda yuzaga keladigan muloqotni rivojlantiruvchi, shuningdek, guruhlar faoliyatini xolis, samarali baholovchi pedagog	A teacher who helps to search for scientific solutions to the problem of the results of activities of groups that use distance learning services, and who develops communication occurring in groups, effectively and objectively assesses activity of groups
Franchayzing Franchising	O'zaro hamkor universitetlarning bir-birlariga o'zlari tomonidan tashkil etiladigan masofaviy ta'lim kurslarini tashkil etish huquqining berishi	Rights that are given by partner universities to other universities for carrying out distance learning courses
SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim Student-centered education	Talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim	Education aimed at developing particular characteristics and abilities and personality of a student by considering his thinking and action strategies
SHaxsni rivojlantirish Developing an individual	Individu vaqt nuqtai nazaridan jismoniy va ruhiy o'zgarishlarning sodir bo'lish jarayoni	A process of occurring physical and psychological changes in an individual
Edvayzer Advisor	Bitiruv malakaviy ishi, kurs loyihalarining talabalar tomonidan individual, mustaqil bajarilishi vaqtida metodik yordam beradigan maslahatchi	An advisor who assists in an independent accomplishment of a thesis, course projects by students
O'yin	Kishilik faoliyatining	An important type of

Game	muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash (ko‘chirish, taqlid qilish) asosida o‘zlashtirish shakli	individual’s activity and a form or method of mastering by imitating the relationships by children
O‘yin texnologiyalari (o‘yin ta’limi) Game technologies (game learning)	Ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirishning barcha ko‘rinishlari: bilim, ko‘nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo‘naltirilgan shartli o‘quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biri	One of the types of education (pedagogical technologies) aimed at creating a process of emotional and assessment activity as well as skills and competence that are the forms of mastering various social experiences by a student
O‘quv loyihasi Learning project	1) talablarning muammolarni izlash, tadqiqot qilish va echish, natija (echim)ni mahsulot ko‘rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish usuli; 2) nazariy bilimlar asosida amaliy topshiriqlarni echishga qaratilgan o‘quv harakati vositasi; 3) rivojlantirish, tarbiyalash, ta’lim berish, bilimlarni boyitish, mustahkamlash va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan didaktik	1) a method of organizing an independent learning activity carried out by students for searching, studying and solving the problems and representing a result in the form of a product; 2) means of learning activities carried out by students for accomplishing the practical assignments based on theoretical knowledge; 3) a didactic mean that develops, educates, increases knowledge and develops skills, competence

	vosita	
O‘quv topshiriqlari Study assignments	O‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladigan ta’limiy vazifalar yig‘indisi	A set of learning assignments that allows to identify the level of knowledge, skills and competence of students on a certain subject
Hamkorlik ta’limi Cooperation education	O‘quv jarayonida talabalarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda o‘zlashtirishlari, o‘zaro rivojlanishlari, “pedagog-talaba(lar)” munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ifodalovchi ta’lim	Education based on cooperation of a teacher and student, and cooperation of students for mastering learning materials and improving in a team, small groups or in pairs in a learning process
Hamkorlik ta’limi texnologiyalari Cooperation education technologies	O‘quv jarayonida talabalarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda o‘zlashtirishlari, o‘zaro rivojlanishlari, shuningdek, “pedagog-talaba(lar)” munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ta’minlovchi ta’limiy xarakterdagi texnologiyalar	Educational technologies that allow to establish relationships based on cooperation of a teacher and student, and cooperation of students for mastering learning materials and improving in a team, small groups or in pairs in a learning process

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: O‘zbekiston, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: O‘zbekiston, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: O‘zbekiston, 2020. – 400 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi – T.: O‘zbekiston, 2021. - 464 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

7. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
8. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 yanvar “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentabr“Oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3290-sonli Qarori..
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4910-son Qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” 296-son Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

13. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. -T.: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot ijodiy uyi, 2013.
14. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi - T.: Nodirabegim, 2020. - 142 b.
15. Mamajonov A., Abdupattoyev M. Matn sintaksisi - Farg‘ona: 2016. - 108 b.

16. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. - T.: Akadem.nashr, 2012. - 416 b.
17. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. Monografiya. - T.: Fan, 2013. - 136 b.
18. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. -Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. -41b.
19. Xudoyberganova D. Til. Tafakkur. Madaniyat. - T.: Nodirabegim, 2020.
20. Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili - Buxoro: BuxDU nashri, 2000. - 36 b.
21. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. -T.: Academnashr, 2013. - 174 b.
22. Ibragimova R.S. Fransuz va o'zbek tillarida AYOL konseptining lingvokognitiv tadqiqi: Filol.fan.nom. ...dis.avtoref. - Toshkent: O'zDJTU, 2012. – 24b.
23. Ivanova S.V. Kulturologicheskiy aspekt yazikovix vedeniy. -Ufa, 2002,- 114s.
24. Ismailov A.A., Jalalov J.J., Sattarov T.K., Ibragimxodjayeva I.I. Ingliz tili amaliy kursidan o'quv-uslubiy majmua. Basic User/Breakhrough Level A.1/. -Toshkent, 2011.-182b.
25. Mo'minov S.M. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: fil.fan.dok-ri ..dis. avtoref. -Toshkent: O'z.R. FA TAI, 2000-47b.
26. Maslova V. Lingvokulturologiya: Ucheb.posobiye. -M.:Academia, 2001.-208 s.
27. Safarov SH. Kogtiniv tilshunoslik. -Jizzak: Sangzor, 2006. -91b.

IV. Internet saytlar

28. <http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
29. <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lum otlari milliy bazasi
30. <http://lib.bimm.uz> – Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
- 31.<http://ziyonet.uz> – Ta'lim portali Ziyonet
- 32.<http://natlib.uz> –Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi svyazi, transport i dr.

